

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**PSIXOLOGIYA TALIM YO‘NALISHI IV-KURS TALABASI
SULEYMANOVA DILNORA ILXOMOVNA**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: SHAXS KASBIY KOMPETENTLIGINI
O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI**

Ilmiy rahbar: Psixologiya kafedrası o`qituvchisi J. Sh.Ostonov

BUXORO – 2019

MAVZU: SHAXS KASBIY KOMPETENTLIGINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

REJA:

KIRISH

I BOB. KOMPETENTLIK – PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogga xos kompetentsiya va kompetentlik masalalari

1.2. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog shaxsi shakllanishida kasbiy yetuklik va kompetentlikning ahamiyati

1.3. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy mahoratni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

II-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BO'LG'USI O'QITUVCHI-PEDAGOGLARDA KASBIY MAHORATGA OID FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI TIZIMI VA ULARNING MAZMUNI

2.1. Kasbiy kompetentlik shakllanishi jarayonining pedagogik xususiyatlari

2.2. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogda kasbiy individual xislatlar va sifatlar shakllanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari

III-BOB. BO'LG'USI O'QITUVCHI-PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI SAMARALI TA'LIM USULLARI

3.1. Tadqiqot obyekti va unda ishtirok etgan respondentlar haqida umumiy ma'lumotlar

3.2. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim usullari va eksperimental tadqiqot orqali erishilgan natijalar tahlili.

XULOSA VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ta'lim muassasalarida yoshlarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarning chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

Oliy ta'lim muassasalarining talabalar ongida pedagogik faoliyatga oid zarur ko'nikmalarni shakllantirish hamda malakalar bilan qurollantirish dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda, ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirish zamonaviy boshqaruv uslublarini o'zlashtirishning pedagogik texnologiyalaridan xabardor bo'lish zaruratini ham qo'ymoqda. Fan va texnikaning rivoji ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatib, ta'lim tizimida, jumladan, iqtisodiy ta'limda ham o'z aksini topmoqda. O'zgarishlar sharoitida iqtisodiy ta'lim jamiyatning rivojlanishi va me'yorida boshqarilishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Bunda aynan iqtisodiy ta'lim bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarni kasbiy kompetentligini shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy inqiroz, yangilanish va yuksalish bosqichlarida aynan ta'lim tizimining iqtisodiyot sohasini isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirga kelib bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarni tayyorlashda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish tadbirlar (islohot)i esa, talaba shaxsining va akademik guruhlarda mashg'ulotlarni tashkil etishning psixologik

jihatlarini hisobga olgan sharoitdagina ijobiy samara berishi mumkin.

Insonda kasbga mehr-muhabbat, moyillik, qiziquvchanlik his-tuyg'ularini shakllantirish genezisi ilk bolalikdan boshlanadi. Shu bois individ kamol topayotgan mezo, mikro va makro muhit unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega. O'zaro ta'sir, o'zaro qo'llab-quvvatlash, o'zaro hissiy yaqinlik, imitatsiya, attraksiya mavjudligi tufayli muayyan kasbga munosabat xususiy hodisadan (yakka holatdan) umumiy, ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi voqelikka aylanadi.

Global o'zgarishlarga qarshi islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda kasbiy kompetentli yoshlarning mavjudligi davr taqozosi hisoblanib, o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan ko'plab loyihalarni ishlab chiqishga qodir ekanligini ko'rsatadi hamda mavzuning **dolzarbligini** belgilab beradi.

Tadqiqot maqsadi. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy kompetentlik shakllanganlik darajasini aniqlash va uni rivojlantirish usullarini tadqiq etish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Kompetentlik – psixologik-pedagogik muammo sifatida ekanligini, ya'ni bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogga xos kompetentsiya, kompetentlik va kasbiy yetuklik masalalari hamda kasbiy mahoratni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy manbalar, adabiyotlar yordamida tadqiq qilish;

2. Uzluksiz ta'lim jarayonida bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy mahoratga oid fazilatlarni shakllantirish bosqichlari tizimi va ularning mazmuni o'rganish va ulardagi kasbiy kompetentlik va kompetentsiyalar; kasbiy individual xislatlar va sifatlar shakllanishining uzluksizligini kasbiy mahoratni shakllantirish tizimiga qo'yiladigan talablar bilan bog'lab tahlillash;

3. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy kompetentlik shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim uslublari va ta'lim texnologiyalarini aniqlash va maqbullarini ajratish.

Tadqiqot ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi», o'z navbatida,

«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» va «Sogʻlom bola yili» Davlat dasturlarida belgilangan rejalarning amalga oshirilishi borasida Buxoro davlat universiteti tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni amaliy jihatlarini, yaʼni muhitga taʼsir etuvchi (I.Borg, M.Muller, T.Staufenbiel), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, koʻnikma va malakalar majmuasi (M.Perlmutter, M.Kaplan, L.Nyquist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni taʼminotchisi (G.Schreder, M.Vorweg), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qoʻllovchi (S.P.Dyrstra, S.Dollinger) sifatida oʻrganishgan.

Rossiyalik olimlardan L.I. Ansiferova (1988), D.N. Zavalishina (1988), Ye.F. Ribalko (1988), N.V. Kuzmina (1990), N.V. Yakovleva (1994), A.K. Markova (1996), M.A. Choshanov (1996), Yu.V. Vardanyan (1998), T.V. Zamorskaya (1998), L.V. Temnova (2001), O.A. Anisimova (2002), S.S. Sedova (2002), A.A. Derkach (2003), V.G. Zazikin (2003), I.A. Zimnyaya (2003), Yu.G. Tatur (2004), A.I. Yushko (2005), A.I. Subetto (2006), Z.M. Albekova (2010) va boshqalar tomonidan soʻnggi yillarda kompetentlik va kompetentsiya masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin.

Yangi taʼlim islohotlari sharoitida oʻqituvchilarning **kasbiy kompetentligi** bilan bogʻliq muammolarni oʻrganish mamlakatimiz **pedagog** olimlaridan N.A. Muslimov, Z.Q. Ismoilova, Sh.S. Sharipov, Q.Abdullayeva, N.Gaipova, O.Qoʻysinov, Q.Olimov, Sh.Abdurahmonov, M.Qodirov, R.Xaydarova va boshqalar, **psixolog** olimlaridan M.G. Davletshin, E.Gʻ. Gʻoziyev, Sh.R. Barotov, V.M. Karimova, O.E. Hayitov va boshqalarning ishlarida koʻzga tashlanadi.

Tadqiqot usullari.

1. «Autopsixologik kompetentsiya rivojlanishini aniqlash» metodikasi (A.Derkach; O.Hayitov, N.Lutfullayevalar modifikatsiyasi);
2. «Kasbiy kompetentlikni ekspert baholash» shkalasi.

Ilmiy izlanishning yangiligi. Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Kompetentlik – psixologik-pedagogik muammo sifatida ekanligini, ya'ni bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogga xos kompetentsiya, kompetentlik va kasbiy yetuklik masalalari hamda kasbiy mahoratni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy manbalar, adabiyotlar yordamida tadqiq qilindi;

2. Uzlaksiz ta'lim jarayonida bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy mahoratga oid fazilatlarni shakllantirish bosqichlari tizimi va ularning mazmuni o'rganish va ulardagi kasbiy kompetentlik va kompetentsiyalar; kasbiy individual xislatlar va sifatlar shakllanishining uzluksizligini kasbiy mahoratni shakllantirish tizimiga qo'yiladigan talablar bilan bog'lab tahlillandi;

3. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy kompetentlik shakllanganlik darajasi o'quv jarayoni misolida tekshirildi va ulardagi ustuvor psixologik sifatlar, ijtimoiy yo'nalganlik aniqlandi, kasbiy faoliyatga yo'nalganlikni belgilab beruvchi yetakchi omillar esa 1) bezovtalanish va motivatsiya, 2) motivatsiya-irodaviy, 3) irodaviy, 4) psixik quvvat va realizatsiya qilish kabi talabalar psixikasidagi sohalar orqali tavsiflandi;

4. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim usullari o'rganilib, ulardan samarali sifatida, 1) keys, 2) psixologik trening, 3) videotasvir (videotrening) uslublari ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro davlat universitetining o'quv jarayoni tanlab olindi. «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi va «Psixologiya» magistratura mutaxassisligi tadqiqot bazasi bo'lib xizmat qildi. So'rovlarda ishtirok etgan respondentlar soni jami 30 nafarni tashkil qildi.

Ilmiy tadqiqotning predmeti bo'lib, o'qituvchi-pedagog kasbiy mahoratiga oid fazilatlar, kompetentsiyalar, kasbiy yetuklik mezonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligi va tadqiqot metodlarining ishonchliligidan kelib chiqadi. Empirik tadqiqot dasturini ishlab chiqish usullari, mazmuniy-statistik tahlil, o'ziga xos metodologik yondashuvlarning tadqiqotimizda qo'llanilganligi kasbiy kompetentlikni o'rganish yo'nalishiga o'ziga xos nazariy hissa bo'lib qo'shiladi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati yana shundaki, «Psixologiya», «Boshqaruv psixologiyasi», «Akmeologiya» hamda «Personalni boshqarish» kabi fanlarni yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog shaxsi sifatlarining o'ziga xos xususiyatlari aniqlanganligi oila va ta'lim muassasalarida bolalarning kasbiy yo'nalganligini to'g'ri tashkil etish uchun beriladigan tavsiyalarga asos bo'ladi. Bunday tavsiya va ko'rsatmalar maktablarda, oliy o'quv yurtlarida, ayniqsa, kasb-hunar kollejlari ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni takomillashtirish va bu muassasa psixologlari uchun dasturlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 ta bob, 9 ta jadval, 5 ta chizma, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi __ bet.

I BOB. KOMPETENTLIK – PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

1.1. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogga xos kompetentsiya va kompetentlik masalalari

Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kasbiy kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jumladan, Yevropa va amerikalik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni amaliy jihatlarini, ya'ni muhitga ta'sir etuvchi (I.Borg, M.Muller, T.Staufenbiel), vazifani muvaffaqiyatli uddalashga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi (M.Perlmutter, M.Kaplan, L.Nyguist); faoliyat tuzilmasidagi alohida xatti-harakatlarni amalga oshirishni ta'minotchisi (G.Schreder, M.Vorwerg), amaliyotga tatbiq etiladigan usullarni bilish jarayonlariga qo'llovchi (S.P.Dyrstra, S.Dollinger) sifatida o'rganishgan.

Rossiyalik olimlardan L.I. Ansiferova, D.N. Zavalishina, Ye.F. Ribalko, N.V. Kuzmina, N.V. Yakovleva, A.K. Markova, M.A. Choshanov, Yu.V. Vardanyan, T.V. Zamorskaya, L.V. Temnova, O.A. Anisimova, S.S. Sedova, A.A. Derkach, V.G. Zazikin, I.A. Zimnyaya, Yu.G. Tatur, A.I. Yushko, va boshqalar tomonidan so'nggi yillarda kompetentlik va kompetentsiya masalalariga ilmiy yondashuvlarni uchratish mumkin.

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, kompetentsiya – samarali ish jarayonining asosida yotgan insonlarning o'zgaruvchan kayfiyat va o'zini tutish holatining o'lchanishidir. Shunday qilib, bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog ish jarayonining samarasi, uning samarali xulq ko'rsatkichidan kelib chiqadi.

Misol uchun, «samarali qaror qabul qilish» kompetentsiyasi quyidagi xulq turlariga klaster shaklida bo'linishi mumkin:

- a) zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash;
- b) mavjud alternativ imkoniyatlarni baholash;
- v) yechimni ishlab chiqish;
- g) mavjud ma'lumotlardan mantiqiy xulosalarning kelib chiqishi va hokazo.

Shunday qilib, kompetentsiya – bu baholanishi mumkin bo‘lgan, kuzatilayotgan xatti-xarakatning klasteridir. Buni biz bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagogning qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyalarining namoyon bo‘lishi misolida ko‘rishimiz mumkin.

So‘nggi 20 yil davomida «kompetentsiyalar» so‘zi boshqaruv samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha atamalarni o‘zida jamlagan tushuncha sifatida talqin qilindi. Oxir-oqibat, bunday umumlashtirish qator chalkashlik va tushunmovchiliklarga olib keldi. Bunday tushunmovchiliklarning asosiy sababi «kompetentsiya» va «kompetentlik» so‘zlarining noto‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi atamalarni ajratishda qo‘llaniladigan metodlardan biri – bu atamalarning erishishi kerak bo‘lgan natijalarni alohida ko‘rib chiqish kerak (Nimaga erishish kerak?) hamda natijaga erishish uchun qo‘llaniladigan model (Ularga qanday erishiladi?). Ushbu kontseptsiyalarga asoslanib, o‘z o‘rnida atamalar aniqlanadi.

Nima? – Kompetentlik – bu samarali ish jarayonini aniqlaydigan natijalar, ya’ni ishning nuqtai nazarlari, unda inson kompetentdir, misol uchun, hisobchi, sotuv bo‘limi boshlig‘i yoki o‘qituvchining o‘z ishlarini bajarishlari.

Qanday? – Kompetentsiyalar – bu ko‘zlangan natijaga erishish uchun qo‘llaniladigan xulq-atvor modellari, ya’ni inson shaxsiyati jihatlari bo‘lib, ular shaxsga ma’lum ishni bajarishda kompetentli bo‘lishga yordam beradi.

Boshqacha so‘z bilan aytganda kompetentsiyalar inson xulq-atvori modeli bilan ishlaydi. Kompetentsiyalar bevosita ish bilan aloqa qilmaydi.

Kompetentsiya – shaxsning – qobiliyat, qiziqish, motivatsiya kabi sifatlarini o‘z ichiga oluvchi kuzatilayotgan xulq-atvor modellarining kompleksi sifatida tasvirlanadi. Kompetentsiya ta’rifi yuqoridagi barcha psixologik atamalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Tashkilot kompetentsiyalar xaritasi

Top menejment:

1. Biznes boshqaruvi
2. Bo‘limlar orasidagi aloqa
3. Insonlar va vazifalarni boshqarish

O‘rtacha menejment:

1. Bo‘limlar orasidagi aloqa
2. Insonlar va vazifalarni boshqarish

Yo‘naltirilgan menejment:

1. Insonlar va vazifalarni boshqarish
3. Qo‘l ostidagilarni boshqarish

Odamlarga ta’sir qilish usullari:

1. Iltimos usuli

Bu yerda boshqaruvchi boshqa odamning yahshi xislatlarini uyg‘otish bilan, «Iltimos, ushbu ishni bugunoq qilib bering, aks holda boshliq juda ham asabiylashadi», kabi gaplar bilan o‘ziga bo‘lgan rahm-shavqatni uyg‘otadi.

Ushbu usul, asosan, boshqaruvchi va ishchi o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatilgandagina o‘z samarasini beradi.

2. Buyruq (asoslanmagan talab)

Ba’zi hollarda quyidagi gaplarni eshitish mumkin: «Agar ishlab chiqarishni soatiga 12 donagacha chiqarmasang, ishdan ketasan». Bu yerdagi tahdid ish jarayoni uchun foyda berishi mumkin chunki qo‘rquv yetarli motiv vazifasini bajarishi ehtimoli bor. Haqiqatdan ham tahdidlar qisqa muddat uchun foydali bo‘lishi mumkin, lekin xafalik hissi kuchayib boshqaruvchida aks etishi mumkin. Tahdid bilan tasir etish usuli 2 ta shaxs o‘rtasida irodalar to‘qnashuviga sabab bo‘ladi. Ma’lumki bunday to‘qnashuvda mag‘lub ham albatta bo‘ladi.

3. Ko‘ndirmoq

Bunda boshqaruvchi qo‘li ostidagi shaxsning mantig‘i, to‘g‘riligi va shaxsiy manfaatidan kelib chiqib murojaat qiladi: «Alisher, ertaga ko‘proq ishlashimiz kerak, ertangi maoshingiz 2 baravar bo‘ladi».

4. Talab (asoslangan buyruq)

Boshqaruvchi ishchi tomonidan tan olingan vakolatlaridan foydalanishi mumkin.

Yosh xodimga nisbatan yondashuv: «Farrux, bizda yuqori ma'muriyatga topshiriladigan hisobot 17:45 dan kechikmasligi kerak. Hisobotda bugungi erishgan yutuqlaringni ko'rsatib o'tish esingdan chiqmasin».

5. Talab + ko'ndirish


«Farrux, ushbu ishni shu haftaning oxirigacha bitirishimiz zarur, agar ishlab chiqarishni ta'minlab bera olmasak, yirik eksport buyurtmasini qo'ldan boy beramiz».

Izoh:

1. Men sening boshlig'ingman va talab qilishga haqqim bor.
2. Bu ham senga kerak – bajarmaslik maoshingga tasir qiladi.

Quyidagi usul odamlarga tasir o'tkazishning eng samarali metodi hisoblanadi:

Muzokara va boshqaruv usullarining ahamiyatliligi



1.1chizma [47]

Boshqaruvchilik roli.

Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshqaruvchilik roli samarasi ijrochilarning «yetukligiga» bog'liq. Bu o'rinda «yetuklik» tushunchasi yosh yoki tajribani ifodalaydi.

Alohida guruh yoki shaxslarning yetukligi deganda, o'z masuliyatlarini anglash, maqsadga erishishga bo'lgan xohish, aniq maqsadni bajarishga nisbatan ma'lumoti va tajribasini ifodalaydi.

Qo'l ostidagi xodimning 2 turdagi yetuklik o'lchamlari mavjud:

1. Qo'yilgan vazifani hal qila olish qobiliyati;
2. Ana shu vazifalarni yechishga yo'nalganlik

Xodimning ana shu ikki ko'rsatkichi bir biridan mustaqildir. Biri yuqori va ikkinchisi quyi, ikkalasi ham yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Ularning o'zaro munosabatiga qarab boshqaruvchining 4 xil roli farqlanadi:

- 1-rol: Nazoratchi;
- 2-rol: Ustoz;
- 3-rol: Yetakchi;
- 4-rol: Katta yordamchi

Biz bu yerda qo'l ostidagi xodimning yetukligi deganda, shaxs yoki guruhning doimiy sifatini nazarda tutmasdan, balki aniq vaziyatlardan kelib chiqqan holda yondashamiz.

Xodimning yetuklik darajasi

Boshqaruvchining roli

Kompetentlik qoniqarlidan quyigacha, fidoyilik darajasi past – nazoratchi;

Kompetentlik darajasi quyi, fidoyilik darajasi yuqori – ustoz;

Kompetentlik qoniqarlidan yuqorigacha, fidoyilik o'zgaruvchan – yetakchi;

Kompetentlik darajasi yuqori, fidoyilik darajasi ham yuqori – katta yordamchi.

1. Nazoratchi roli

Boshqaruvchi aniq vazifa beradi hamda ish jarayonini e'tibor bilan har bir detaligacha kuzatadi. Tez orada talablarga javob bermaydigan ish va natijalar yuzaga chiqadi hamda bunga mas'ul shaxslar ishlari uchun javob berishadi. Boshqaruvchi kutayotgan natijasini aniq tushuntiradi, kasbiy-shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga alohida urg'u berib, sifatning o'sishini talab qiladi.

Qachon va kim bilan qo'llaniladi?

Boshqaruvchining «Nazoratchi» roli o'zini ustida ishlamaydigan va vazifani bajara olmaydigan shaxs yoki guruhga nisbatan qo'llaniladi. Bunday usul yangi ishchilar bilan ishlaganda yoki «bankrot» bo'lishi kutilayotgan korxonaning

boshqaruvini qoʻlgan olganda ishlatish ayniqsa samaralidir.

2. Ustoz roli

Boshqaruvchi qoʻyilgan vazifa va oradagi munosabatlarga teng yoki yuqori yoʻnalgan boʻladi. Ushbu vaziyatda qoʻl ostidagilar masʼuliyatni oʻz boʻynilariga olishni istaydilar, ammo yetuklik darajasi yuqori boʻlmagani uchun buning uddasidan chiqa olmaydilar. Shunday qilib, boshqaruvchi ish jarayonini birma-bir koʻrsatish usulidan foydalanib xodimlarga «ustoz» vazifasini oʻtaydi. Ayni vaqtda xodimlarning ishga boʻlgan entuziazm, qiziqish va boshqa ruhiy holatlarini ham boshqarishi kerak boʻladi.

Qachon va kim bilan qoʻllaniladi?

Bunday usul jamoa boʻlib shakllangan yoki ozgina boʻlsa ham tajribaga ega boʻlgan, lekin hali koʻp narsalarni oʻrganishi kerak boʻlgan xodimlarga nisbatan qoʻllaniladi.

Ushbu uslubni qiziquvchan insonlarga ish yoʻnalishini toʻgʻri tanlashda qoʻllash maqsadga muvofiq sanaladi. Bundan tashqari ushbu uslub yordamida jamoa ish sifati va jadalligini oshirish mumkin. Boshqaruvchining nazorat va instruktorlik qilishi xodimlarning qobiliyatlarini bir maromda rivojlanishini taʼminlaydi.

3. Yetakchi roli

Boshqaruvchi qoʻl ostidagilarga yordam beradi hamda qaror qabul qilishda masʼuliyatni xodimlar bilan boʻlishadi. Bunday usulni qoʻllanilishiga sabab, qoʻl ostidagi xodimlarning yetuklik darajasi yuqoriligidir.

Xodimlarga aniq koʻrsatmalar berish shart boʻlmaydi, ular oʻzlari qayerda nima qilishni yahshi bilishadi. Faqatgina ish yuzasidan qoʻshimcha motivatsiyaga ehtiyoj sezishadi. Boshqaruvchi xodimning motivatsiyasini oshirish uchun qaror qabul qilishda qatnashish imkoniyatini berishi va ishi yuzasidan koʻmaklashishi mumkin. Aslida, boshqaruvchi va xodim birgalikda qaror qabulishadi. Bu holat xodimning motivatsiyasini oshiradi. Boshqaruvchi guruhning maʼnaviy-axloqiy holatini yaxshilash maqsadida xodimlar bilan shaxsiy munosabatlarini oʻrnatishga

faol bo‘ladi, ularda ijodkorlik hislarining mavjudligi uchun rag‘batlantiradi. Bundan so‘ng insonlarning vazifalarni bajarishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Buyruq berish juda kam, mustasno holatlar boshqaruvchi tomonidan hal etiladi. Muhim savollarga javoblarning butunlay oydinlashtirilishiga katta e‘tibor beriladi hamda boshqaruvchi ish jarayoniga o‘zining ijodkorligini qo‘shgan xodimlarni rag‘batlantiradi.

Qachon va kim bilan qo‘llaniladi?

«Yetakchilik» boshqaruvchilik roli alohida malakali ma‘lumotga ega bo‘lgan ish jarayonining texnik jihatlarini yahshi tushunadigan shaxs yoki guruhlar bilan ishlashda qo‘llaniladi. Jamoaning keying rivojlanishi jamoa a‘zolarining kundalik ishlarida ko‘proq mas‘uliyat olishlari hamda ma‘naviy axloqlarining me‘yorda turishiga bog‘liq.

4. Katta yordamchi

«Katta yordamchi» roli rivojlangan yetuk xodimlarga qaratilgan. Chunki ular vazifaga nisbatan mas‘uliyat bilan yondashishadi. Natijada boshqaruvchi qo‘l ostidagi ishchilariga erkin ishlashga imkon beradi. Ularga yordam, ko‘rsatmalar kerak emas, chunki ular barcha vazifalarni o‘zaro taqsimlab ishlashni bilishadi.

Boshqaruvchi faol xodimlar orasida o‘zini borligini bildirmaydi, asosiy ishni jamoaning ayrim faol a‘zolariga yuklaydi. Kundalik nazorat va tekshiruvlar jamoa a‘zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Qachon va kim bilan qo‘llaniladi?

«Katta yordamchi» boshqaruvchilik usuli yuqori malakali shaxs yoki guruhlariga nisbatan qo‘llaniladi. Bunday usul o‘z ishiga mas‘uliyatli bo‘lgan tajribali insonlar bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladi.

1.2. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog shaxsi shakllanishida kasbiy yetuklik va kompetentlikning ahamiyati

Professor N.A. Muslimov bu borada keng qamrovli tadqiqotlarni olib borib, kasbiy kompetentlikni yettita turga bo'lib o'rganadi. Olimning fikricha, (1) global kompetentlik; (2) ijtimoiy-madaniy kompetentlik; (3) ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik; (4) axborot olishga kompetentlik; (5) kommunikativ kompetentlik; (6) o'quv-bilishga oid kompetentlik; (7) amaliy faoliyatga oid kompetentlik turlari mavjud bo'lib, fikrimizcha, bular shaxs kompetentsiyalari, kasbiy individual xislatlari va sifatlarini aniqlovchi mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin [80].

Quyida ana shu kasbiy kompetentlik klasterining qisqacha tavsifini keltiramiz:

1) Global kompetentlik. Ijtimoiy borliqni his eta bilish va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo'lini topa olishi, o'zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o'rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi.

2) Ijtimoiy-madaniy kompetentlik. Chuqur o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi: milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an'analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta'siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar majmuasi.

3) Ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik. Fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste'molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeini aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash.

4) Axborot olishga kompetentlik. Audio-video ko'rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari (internet, intranet va boshqalar) yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni tahlil etish, o'zgartirish, saqlash va uzatish mahorati.

5) Kommunikativ kompetentlik. O‘zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilish.

6) O‘quv-bilishga oid kompetentlik. O‘rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog‘liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo‘lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami: maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar majmuasi.

7) Amaliy faoliyatga oid kompetentlik. Bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko‘chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalari

Professor E.G‘.G‘oziyevning ilmiy qarashlaridan ma‘lum bo‘lishicha, ijtimoiy yetuklik darajasi – bu shaxsning ota-ona va jamiyatni katta yoshli a‘zosi sifatida kelajak avlodga munosabati, tarbiyachilik xususiyatlari, axloqiy sifatleri shakllanganlik darajasini belgilovchi sifatlardir. Bu sifatlar mohiyatini shaxsning umumiy intellekt va ilmiy bilimlar darajasi bir tomondan belgilasa, boshqa tomondan, ijtimoiy jarayonga bo‘lgan munosabat, sezgirlik darajasi hamda mas‘uliyat hissining shakllanganligi belgilab beradi.

Bizningcha, bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagog kasbiy kompetentligi «kompetentlik nazariyasi»ga asosan, to‘rt bosqichli jarayonni, ya‘ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o‘tish jarayonini o‘z ichiga qamrab oladigan quyidagi psixologik holat bilan baholanadi.

1) Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi: Sohaning yetakchi mutaxassislari (S.Torp, J.Klifford, 2004)ni fikricha, anglanmagan kompetentsizlikda, shaxs hech narsani bilmaydi (yoki hech narsa qila olmaydi). Misol qilib aytganda, shaxs «Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman» darajasida turadi. Balki, bu shaxs amaliyotda bunga ehtiyoj sezmayotgandir yoki bu bilim va malakaga ehtiyoji yo‘qdir. Shuning uchun bunday sharoitlarda u shaxsiy kompetentligiga

bo'lgan zaruriyatni his qilmaydi. Shu o'rinda yana bir misol: ilk go'daklik chog'larida bola yengil mashinada bir yerdan boshqa yerga borishni sayohat omili deb biladi, ammo bu holatda u o'zining mashina boshqara olmasligini bilmaydi va shu tarzda o'zining shaxsiy kompetentligini anglay olmaydi.

2) Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi: Anglanilgan kompetentsizlikda shaxs «bilmasligi» haqidagi bilimni kashf qiladi. Odatda bu jarayon biror-bir harakatni bajarish istagi yoki ehtiyoji tug'ilishi oqibatida yuzaga keladi. Bu bosqich «Men bilmasligim haqida bilaman» deb nomlanadi. Masalan: mashina boshqarishni bilmaydigan o'smir, biron-bir kishidan o'zini biror yoqqa olib borishini iltimos qilishiga to'g'ri keladi va bunda o'zining mashina boshqara olmaslik kompetenti haqida fikr-mulohaza yuritgan holda «o'z ustida» qayg'uradi.

3) Anglangan kompetentlik bosqichi: Kompetentlikni anglanishi uchun shaxs biron-bir (rasmiy yoki norasmiy) o'qishda tahsil olishi lozim. Bu bosqichda u, asosan, o'qituvchining xatti-harakatlarini o'zlashtiradi (agar uning xotirasi bunga imkon bersa). Har lahzada shaxs qilayotgan ishini anglaydi yoki «nima bilishi haqida biladi». Masalan, kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan va haydovchilik guvohnomasi olgan 18 yoshli yigit (haydovchi) yo'lga chiqishdan oldin mashinani to'g'ri boshqarish haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi va o'ziga-o'zi quyidagilarni pichirlaydi yoki xayolidan o'tkazadi: «Hozir yonni yoki orqani ko'rsatuvchi oynalarga qarayman, oldimdan chiqqan jonli to'siqqa signal beraman, borishim zarur bo'lgan obyektni joylashishi ko'ra yoki harakat trayektoriyasi bo'yicha o'ngga-chapga burilaman va hokazo».

4) Anglanmagan kompetentlik bosqichi: Anglanmagan kompetentlikda shaxs o'zidagi mavjud bilim va ko'nikmalarni shu darajada ko'p qo'llaydi-ki, natijada bu odatiy holga aylanib qoladi. Endi bu shaxs har bir xatti-harakati davomida keyingi qadamni o'ylamasdan bosadigan bo'ladi yoki harakatlar algoritmi anglanmagan tarzda amalga oshiriladi (yoki bo'lmasa bu harakat ong ostida bajariladi). Oqibatda shu shaxs: «Men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman», – degan yakuniy xulosaga kelishi mumkin. Tasavvur qiling, siz farzandingizga mashina

boshqarishni o'rgatayapsiz. Mashinani boshqarish davomida siz ma'lum darajadagi harakatlaringiz mohiyatini tahlil qilmaysiz, sababi, bular sizning «qoningiz va jismingizga» singib ketgan bo'ladi.

Bizningcha, shaxsning kasbiy yetukligi (professionalizmi), bu nafaqat yuksak kasbiy natijalarni ko'rsatib qolmasdan, balki zarur bo'lgan psixologik komponentlarning mavjud bo'lish shartligi, ya'ni mehnatga bo'lgan ichki intilish va shaxs psixik xususiyatlarining uzviy bog'liq holatidir. Fikrimizcha, kasbiy yetuklikning mohiyati – kasbda shaxsni nima yuksaklikka yetaklaydi-yu, u qanday bebaho ichki hislarga tayanadi, nima uni bu ish bilan shug'ullanishga undaydi-yu, qaysi ichki resurslarni o'z xohishi bilan qilayotgan mehnatiga baxshida etadi kabi masalalar yechimi bilan uzviy bog'lib bo'lib, shaxsning kasbiy kompetentlik darajasiga aloqadordir.

Rus olimasi O.A. Kozireva o'z izlanishlarida kasbiy yetuklik darajalari va kasbiy kompetentlik shakllanishini qiyoslab o'rgangan. Uning fikricha, kasbiy yetuklikning uchta darajasi mavjud bo'lib, ularning har biri «*anglanmagan kompetentsizlik* → *anglanilgan kompetentsizlik* → *anglangan kompetentlik*» tizimidagi kasbiy kompetentlik darajalarini belgilab beradi (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval.

Kasbiy yetuklik (professionalizm)ning darajalari		Kasbiy kompetentlik darajalari
«Eng maqbul» (istiqbolli)	9	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	8	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	7	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)
«Eng muhim» «nomigagina»	6	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	5	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	4	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)

«Yashirin, ammo yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan» (ilmi-tarbiyali)	3	Anglangan kompetentlik («Men nima bilishim haqida bilaman»)
	2	Anglanilgan kompetentsizlik («Men bilmasligim haqida bilaman»)
	1	Anglanmagan kompetentsizlik («Men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman»)


Shuningdek, bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagog shaxsi shakllanishida kasbiy yetuklik va kompetentlik ahamiyatini kengroq yoritishda mutaxassis kompetentsiyalari klasteriga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy kompetentlikning bunday klasteri uch xil: (1) faoliyatni; (2) shaxslilikni; (3) motivatsiyani tashkil qiluvchi kompetentsiyalar majmuida ko‘rinadi (1.3-chizmaga qarang).

Biz tomondan o‘tkazilgan dastlabki tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, *kompetentlik* – inson faoliyatini uning eng yaxshi bajargan amallariga nisbatan baholashda yordam beradigan standart, deb aytish mumkin. Sababi, bunday baholanish, o‘z navbatida, o‘zgarishlar sharoitida tashkilot (iqtisodiyot subyektlari) faoliyatini yaxlit holda ijobiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi. Oxir oqibat, muvaffaqiyat egalari – bu tashkilot, jamiyat va muayyan shaxslar hisoblanishadi.

Umuman olganda, kompetentsiya *muayyan shaxs* doirasida o‘rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo‘lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo‘lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, *tashkilot* miqyosida esa hamkasblarni o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to‘lmay qolgan «bo‘shliq»larni to‘ldirishda asqotadi.

Bo'lg'usi iqtisodchi-pedagogga xos kompetentsiyalar klasteri



1.3-chizma.

Demak, yuqoridagi to'rt bosqichli nazariya, uch bosqichli tizim, uch xil ko'rinishdagi kompetentsiyalar tuzilmasi va klasterda ilgari surilgan g'oyalarga va yana shu sohada tadqiqotlarni olib borgan olimlar fikriga asoslanadigan bo'lsak, **kompetentlik** – ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta'minlash uchun, ya'ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish(o'qish)-faoliyatini yaxshilash, kasbiy kompetentli mutaxassis shaxsi shakllanishida o'ziga xos **indikator** sifatida xizmat qiladi.

1.3. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy mahoratni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishga bog'liq.

Shunday ekan respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun bugungi kunda pedagog kadrlarga pedagogik nazariyani ya'ni o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalarni o'rganish bilan bir qatorda yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik hamda tashkilotchilikni ham bilish talab etiladi.

Tashkilotchilik – murakkab sifat bo'lib, u bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarning har qanday ongli faoliyatlarida va xulqlarida namoyon bo'ladi.

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– **mafkuraviy sohada** – ilmiy dunyoqarash va e'tiqod, sosial ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;

– **kasbiy pedagogik sohada** – bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; psixologo-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat'iylik va maqsadga intilish, vazminlik o'zini tuta olish;

– **bilish sohasida** – keng ilmiy saviya, ma'naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma'lumotni oshirishga intilish.

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogning psixologo-pedagogik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar:

Bilim egallash sohasida:

– pedagogikaning metodologik asoslarini, shaxsning rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini bilish;

- tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini tushunish;
- bolalar va o‘smirlar anatomo-fiziologik rivojlanishlarining asosiy qonuniyatlarini bilish va hokozo.

Ko‘nikma va malakalar hosil qilish sohasida:

- pedagogik vaziyatni tahlil qilish;
- pedagogik ta’sirlarni rejalashtirish va natijalarini mo‘ljallay olish, ijtimoiy-pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo‘lish va rivojlanish sabablarini, shart-sharoitlari va xarakterlarini tahlil qila bilish va baholay olish;
- aniq, pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish;
- o‘quvchilarning sinfdagi va sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish;
- ta’lim-tarbiya ishlarining nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlay olish;
- rejalashtirilgan pedagogik ta’sirlarga o‘quvchilarning javob harakatlarini oldindan chamalay bilish ko‘nikmalari.

O‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va uni amalga oshirishni boshqarish sohasida:

- o‘quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o‘quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish ko‘nikmasi;
- ilmiy materialni qayta ishlab, o‘quv materialiga aylantira olish ko‘nikmasi;
- ma’lum didaktik vazifaga muvofiq, o‘quvchilar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o‘quv materialini o‘zlashtira olish ko‘nikmasi;
- darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko‘nikmasi.

O‘quvchilar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida:

- tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o‘quvchilar va jamoa uchun vazifalar

belgilash, qo'yilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o'zgartira olish ko'nikmasi;

- o'quvchilarga ta'sir o'tkazish va ular faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishni rejalashtirish ko'nikmasi;

- ta'lim va tarbiya uslublarini pedagogik maqsadga muvofiq qo'llash ko'nikmasi;

- o'quvchilar xulqi va faolligini boshqarish ko'nikmasi;

- o'quvchining tashqi ko'rinishi va qiliqlaridan o'zini xayolan tarbiyalanuvchi o'rniga qo'ya olish (pedagogik refleksiya) ko'nikmasi;

- to'g'ri talablar qo'ya bilish, pedagogik vaziyat va har bir o'quvchining xususiyatlariga qarab ularni o'zgartira olish ko'nikmasi;

- ayrim o'quvchilar, sinf jamoasi va kichik guruhlar, shuningdek, ota-onalar va o'qituvchilar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatish ko'nikmasi;

- har xil odamlar bilan turli sharoitda aloqa qilish, umumiy til topa bilish va to'g'ri muomala qila olish ko'nikmasi;

- ta'lim-tarbiya ishtirokchilarini o'ziga qarata olish ko'nikmasi;

- zarur hollarda jamoaga va ayrim o'quvchilarga nisbatan munosabatni o'zgartira olish, ularga individual yondashish yo'llarini topa olish ko'nikmasi;

- psixologik xususiyatlar va ma'naviy-psixologik vaziyatlar, ijtimoiy-pedagogik holatlar va xatti-harakat sabablarini ko'ra olish ko'nikmasi.

Pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasida:

- qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi;

- tashqi ta'sirlarga moslashish yoki ulardan saqlanish;

- sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash va qayta o'zgartira olish malakasi;

- o'quvchilarning sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlariga rahbarlik qila olish, ularni to'g'ri yo'lga sola bilish, paydo bo'lib turgan o'zaro nizolarni yo'qota bilish va hokozolar.

Yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash va pedagogik vaziflarni belgilash sohasida:

- olingan natijalarni dastlabki ma'lumotlar va topshirilgan pedagogik maqsadga taqqoslab tahlil qila bilish ko'nikmasi;
- ta'lim-tarbiya ishlarining samarali shakl, metod va vositalarini topa bilish ko'nikmasi;
- pedagogik faoliyatning yutuq va kamchiliklarini tahlil qila bilish ko'nikmasi;
- ilg'or tajribalarni umumlashtirish, ishning samarali shakl va usullarini o'zlashtirib olish maqsadida boshqa o'qituvchilar tajribasini tahlil qila bilish ko'nikmasi;
- o'z tajribasi bilan pedagogik nazariya o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, tadqiqotchilik vazifalarini o'z oldiga qo'ya bilish ko'nikmasi;
- erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida galdagi pedagogik vazifalarni belgilay olish va amalga oshira olish ko'nikmasi.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga quyidagilar kiradi:

- ixtisosga doir bilimlarni bilish;
- ilmiy bilimlarni, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va metodlarini bilish;
- fanning nazariy va amaliy ahamiyatini, hozirgi darajasi, qonuniyatlari, tarixi va rivojlanishining keyingi asosiy yo'nalishlarini bilish;

Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni:


- umumta'lim maktablari, akademik liseylar, kasb-hunar kollejlari rivojlanishining hozirgi bosqichida fanlarni o'qitishning maqsadi va vazifalarini bilish, davlat ta'lim standarti, amaldagi maktab (lisey, kollej) dasturi, darsliklar va asosiy o'quv qo'llanmalarini har tomonlama puxta bilish;
- kursning qaysi masalalari o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirishini tez payqash, bu qiyinchiliklar mohiyatini tushunish, ularni bartaraf etish yo'llarini, o'qitish metodikasining nazariy asoslarini bilish, ma'lum sharoitlarda didaktikaning, pedagogik psixologiyaaning asosiy qoidalariga tayangan holda

o'qitishning qulay muqobillarini tanlay olish;

– zarur hollarda ishning ma'lum usullarini boshqasi bilan almashtira bilish, ularni shakllantirish metodikasini bilish, o'quvchilarda fanga qiziqishni uyg'otish va rivojlantira bilish va boshqalar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir o'qituvchi-pedagog **kasbiy kompetentli** bo'lishi zarur. Kasbiy kompetentli o'qituvchi-pedagog kam kuch sarf qilib, katta natijaga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi.

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllanganligining pedagogik jarayoni



Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi.

Malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa iste’dod, layoqat, zehn, ya’ni inson asab sistemasida anatomo-fiziologik xususiyat ham bo‘lishi zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi psixik xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagogga quyidagi kasbiy kompetentlilik funksiyalari shakllangan bo‘lmog‘i lozim. (1.4-chizmaga qarang)

Umuman olganda, yuqorida zikr etilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, o‘qituvchi-pedagogga xos kasbiy kompetentlilik ularning ilmiy, siyosiy, huquqiy, ta’lim tarbiyaviy tajribalari asosidagina shakllanadi.

Ikkinchidan, buning uchun ularda quyidagi pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish, ya’ni **bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagogda**:

- a) o‘rtaga tusha bilish qobiliyatini shakllantirish;
- b) shu asosida unda tashkilotchilik mahoratini shakllantirish;
- v) o‘zini idora etish qobiliyatini tarbiyalash;
- g) unda muljallay olish (orentasiya) xislatini shakllantirish;
- d) uning irodaviy sifatini tarbiyalash;
- j) ijodiy yondashish qobiliyatini shakllantirish;

z) pedagoglarda safarbarlik qobiliyatini rivojlantirish kabi vazifalarni hal etish oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilar zimmasidadir.

II-BOB. UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA BO'LG'USI O'QITUVCHI-PEDAGOGLARDA KASBIY MAHORATGA OID FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI TIZIMI VA ULARNING MAZMUNI

2.1. Kasbiy kompetentlik shakllanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari

Maktabgacha ta'lim muassasasida. Bolalarda tabiatni, atrof-muhitni tushuna olish, tasavvur qilish va kuzatuvchanlik xislatlarini shakllantirish, o'zi yashab turgan joyga, insonlarga, ota-onasiga, qarindoshlariga va o'rtoqlariga mehr-muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish, axborotlarni egallashga qiziquvchanlik, tozalik-ozodalikka rioya qilish, moddiy ne'matlarga egalik va asrash hissi shakllantiriladi.

Boshlang'ich ta'limda. O'quvchilarda obyekt va hodisalarning mohiyatini tushuna olish, oilaviy va ijtimoiy an'analarning madaniy asoslarini anglatish, mehnatsevarlik, o'zgarlar mehnatini e'zozlash, insonlarni hurmat qilish, odamlarga yaxshilik qilish hissini shakllantirish va egallash, axborot olishga intilish va qiziquvchanlik rivojlantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limda. O'quvchilarda jamoadagi o'z o'rniga ega bo'lish, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlarini o'rganish, ijtimoiy mehnat sohasiga oid qadriyatlarni e'zozlash, axborotlarni mustaqil izlash, tanlab olish, o'zaro munosabatlarga e'tiborli bo'lish, kasbiy faoliyatlar haqida tushunchalarga ega bo'lishlik, maqsadlarni ko'ra bilish va o'z faoliyatini rejalashtirish, jamoada o'z faoliyatini boshqara olish, vaziyatlardan chiqa bilish xislatlari shakllantiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida. O'quvchilarda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish, tanlagan kasbiy faoliyatida dunyoqarashining kengligi, fanning roli va uning ahamiyatini bilish rivojlantiriladi, kasbiy bilim va faoliyat tajribalariga, iqtisodiy va huquqiy bilimlarga egalik, olingan ma'lumotlarni tahlil etish va o'zgartira olish sifatlari shakllantiriladi, mustaqil izlanish, egallagan kasbini va jamoa faoliyatini qadrlashi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishi

va o'tkazishni bilishi, qat'iyatlilik, ijodiy fikrlash va yangiliklar yaratish faolligiga erishiladi.

Oliy ta'lim muassasasida. Talabalarda ijtimoiy borliqni his eta bilishi, mustaqil o'z yo'lini topa olishi, inson va insoniyat hayotining ma'naviy-axloqiy asoslariga oid bilimlar majmuasiga ega bo'lishlari lozim. Bilim va faoliyat tajribasining doirasiga, fuqarolik, ijtimoiy mehnat sohasi, oilaviy munosabatlar, kasbiy, shaxsiy mavqeini rivojlantirish borasidagi bilim va tajribalar rivojlantiriladi; kasbga oid axborotlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratib borishga, zarur axborotlar tanlab olish, ularni tahlil etish va o'zgartirish mahoratiga, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'ladi. Bilimlar va malakalar majmuasi, mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik, egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish, kasbiy mustaqillik, o'ziga ishonch, turli vazifalarni idora qila olish xislatlari shakllantiriladi.

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog kasbiy kompetentsiyalari shakllanishining pedagogik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Maktabgacha ta'lim muassasasida. Bolalarda atrof-muhitni o'rganishga qiziqish va voqea-hodisalarni farqlay olish, kuzatuvchanlik sifatleri shakllantiriladi. Turli xil shakl va belgilarni tushuna olish, shakl va ranglarni farqlay olishi natijasida tabiiy va chiqindi ashyolaridan buyumlar yasash orqali bunyodkorlik hissini shakllantirishga erishiladi.

Boshlang'ich ta'limda. O'quvchilarda bilim olishga oid manbalarni o'qiy olish, muloqotga kirisha olish, ta'lim jarayonida o'qitiladigan fanlarni ajrata olish va tanlash hissi shakllantiriladi, ish qurollarini tartibli joylashtira olish, buyumlarni pardoalay olish, maketlar va modellar yasash, buyumlarga badiiy (dizayn) ishlov berish qobiliyatlari rivojlantiriladi, yuqori natijalarga ega bo'lishlikka intilish hissi singdiriladi.

Umumiy o'rta ta'limda. O'quvchilar vazifalarni bajarish orqali rag'bat olishga intiladilar. Shu orqali ularda ijodkorlik, fanlarning o'zaro aloqadorligini anglash, moddiy ne'matlarni tarkib toptirish, obyekt va jarayonlarni tizimli

ekanligini anglash, modellarning mazmun, mohiyatini anglash, rejalashtirish, natijani rag'batlantirishga moyillik, baholay olishlik xislatlari shakllantiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida. O'quvchilarda tafakkur rivojlantiriladi va ular mustaqil izlanish olib borish, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish, fanlarning umumiy va xususiy jihatlarini farqlay olish xislatlariga ega bo'ladilar. Obyekt va jarayonlarning modellarini o'rganish, ularning xususiyatlarini aniqlay olish, rejalashtirish, natijalarni oldindan ko'ra bilish sifatlari shakllantiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida. Talabalarda o'zlikni anglash, umummadaniy va maxsus bilimlarni birlashtira olish, fanlarni o'zlashtirishda integrasion yondashuv, tizimlararo bog'lanishni bilish, taktik maqsadlarni joriy eta olish xislatlari rivojlantiriladi. O'quv axborotlarini saralash va joylashtirish, obyekt va modellarni loyihalashtirish, yaratish, natijasini oldindan ko'ra bilish, qonun va xususiyatlarni analitik tasavvur qilish malakalari shakllantiriladi.

2.2. Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogda kasbiy individual xislatlar va sifatlar shakllanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari

Maktabgacha ta'lim muassasasida. Tarbiyalanuvchilarda bolalarcha dunyoqarashga egalik, atrof muhitni kuzatuvchanlik, atrof-olamga qiziqish, o'z so'ziga va "Men"iga egalik, sabr-qanoat qilishlik, javobgarlik hissi, ziyraklik, ishonuvchanlik, kirishuvchanlik sifatleri shakllantiriladi.

Boshlang'ich ta'limda. O'quvchilarda sinchikovlik, kattalar mehnatiga qiziquvchanlik, erkin fikrlash, sezgirlik, tasavvur qila olish, o'z fikriga ega bo'lish, chidamlilik, intizomlilik, o'zini tuta bilish, bilim olishga qiziqish, javobgarlik xislatleri shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limda. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga intiluvchanlik, kasbga bo'lgan havas, voqea va hodislarni tahlil qila olish, intellektual imkoniyatlarni maksimal ishlata olish, ijodkorlik, mustaqillik, jur'atlilik, har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaslik, e'tiborlilik, mas'uliyat hissi, ko'ngilchanlik, layoqatlilik, fikrlash, keng fantaziyaga egalik, majburiyatlarni his qilish, o'z kamchiliklarini anglash va xulosalar chiqara olish kabi xislatlar rivojlantiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida. O'quvchilarda yangi axborotlarni olishga ehtiyoj, ilg'or tajribalarni o'rganishga intiluvchanlik oshiriladi, erudisiya, kerakli manbalarni topishga izlanuvchanlik, bashorat qila olish, dadillik, o'zini tuta bilish, o'zaro muloqotda chidamlilik, har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaslik, burchga sadoqat, mehribonlik, mehnatsevarlik, barqarorlik, iqtidorlilik, o'z-o'zini anglash, ma'suliyatlilik, irodaviylik, o'ziga nisbatan tanqidiy fikrlay olish xislatleri shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasasida. Talabalarda kasbiy mahoratning yuqori darajasiga erishishni ko'zlash, ilmiy-texnik taraqqiyot istiqbolli yo'nalishlarini bilishga intilish, keng bilim doirasiga egalik, tahlil va sintez qila olish, keng dunyoqarashga ega bo'lish, qat'iylik, matonat, maqsad yo'lida kurash, barqarorlik, vatanparvarlik,

insonparvarlik, mahorat xislatlari rivojlantiriladi. Keng fikrlash doirasiga egalik, o'z ustida tinmay ishlash, o'ziga nisbatan talabchanlik, kamolotga intiluvchanlik, qiyosiy baholash, tanlagan kasbini egallashda faollik sifatleri rivojlantiriladi.

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog kasbiy sifatlar shakllanishi jarayonining pedagogik xususiyatlari :

Maktabgacha ta'lim muassasasida. Tarbiyalanuvchilarda bolalarcha dunyoqarash, atrof-olamga qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, jamoaga kirisha olish, o'z-o'ziga xizmat qilish, kattalar mehnatini qadrlash, sabr-qanoatlilik sifatleri shakllantiriladi.

Boshlang'ich ta'limda. O'quvchilarda bilimga intiluvchanlik, taqqoslay olishlik, o'z-o'zini anglash, fikrlash, kommunikativlik, fikrlash, faoliyat yuritish ko'nikmalariga egalik, ozodalik, saranjomlik, ziyraklik, javobgarlik hissiga egalik, rostgo'ylik, sezgirlik, g'ayratlilik, kuzatuvchanlik, jamoada faoliyat yuritish ko'nikmalariga egalik sifatleri shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'limda. O'quvchilarda ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini anglash, tanqidiy fikrlay olish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglash, intizomlilik, tashabbuskorlik, e'tiborlilik, liderlik, rostgo'ylik, yangilikka intiluvchanlik, kommunikativlik, sinchkovlik, ijodkorlik, bilimga, mehnatga muhabbat, kasb-hunar egalariga hurmat hissi rivojlantiriladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida. O'quvchilarda voqea va hodisalarni tahlil qila olishlik, intellektual imkoniyatlarini maksimal ishlata olish, o'zi va o'zgalarning faoliyatini baholay olishlik, g'ayratlilik, o'zgalar mehnatini qadrlay olish, mas'uliyatlilik, o'zgalar fikrini hurmat qila bilish, tanqidiy fikrlay olish, o'ziga nisbatan talabchanlik, o'z ustida tinmay ishlash, tashkilotchilik, izlanuvchanlik, o'zi va o'zgalarning faoliyatini baholay olishlik, tanlagan kasbiga qiziqish va moslashish, yangilikka intiluvchanlik xislatleri rivojlantiriladi.

Oliy ta'lim muassasasida. Talabalar ijtimoiy munosabatlarni tahlil va sintez qila olishlari lozim. Ularda keng bilim doirasiga, keng dunyoqarashga egalik, bashorat qila olishlik, o'zi va o'zgalarning faoliyatini baholay olishlik, boshqalar

uchun mas'uliyatni his qilish, erudisiya, voqea va hodisalarni tahlil qila olishlik, tanlagan kasbini sevish, unga ijodiy yondashish, o'z ustida tinmay ishlash sifatлари rivojlantiriladi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida kasbiy mahoratni shakllantirish tizimiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

Maktabgacha ta'limda qo'yiladigan talablar majmuasi:

1) O'z-o'ziga xizmat qilish (yoshligidan boshlab o'z kiyimidagi nuqsonlarni bartaraf etish orqali sabr-qanoatga o'rganadi, kiyimlarini tuzatib qo'yish,) to'g'risida tasavvur va tushunchaga ega bo'lish.

2) Kattalar mehnati haqida tasavvurga ega bo'lish.

3) Kattalar mehnatiga taqlid qilish odatini hosil qilish.

4) Navbatchilik mehnati (tabiat bag'rida mehnat qilish, qushlarga ovqat berish, gullarga suv quyish, hayvonlarni boqish, dasturxon bezash va changlarni artish) orqali kattalar mehnatini qadrlash to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

5) Jamoada ishlash (boshqaruvchanlik, intizomlilik, tashabbuskorlik, ijrochilik, jamoadagi har bir ishtirokchining fikrini inobatga olish va hurmat qilish) to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

6) Talabchanlik (boshlagan ishini oxiriga yetkazish) to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

7) O'yin orqali kasb egalari ("quruvchi o'yini" orqali loyihalovchi, muhandis, kranchi, shofyor, g'isht teruvchi va boshqalar) to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

8) Qog'ozdan, tabiyot ashyolaridan, tashlandiq buyumlardan (tuxum po'chog'i, qiyqim matolardan, turli katta-kichik qutichalardan) buyum yasash orqali tejamkorlik hissining hosil bo'lishi.

9) Mehnatga muhabbat to'g'risida tasavvurga ega bo'lish.

10) Yaratuvchanlik (penoplastlardan kemalar yasash, sayohatlarda har xil tabiiy qurigan o'simliklarni to'plab applikasiya tayyorlash) orqali tabiat to'g'risida tasavvurlar hosil bo'lishi.

11) Mas'uliyat hissi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi.

Boshlang'ich ta'limda qo'yiladigan talablar majmuasi:

- 1) Tabiiy, ijtimoiy voqea va hodisalar muloqotida kasb-hunar turlari haqida tushunchalarga ega bo'lish.
- 2) Ijtimoiy voqelikda kasbga intilish, qiziqish hislarini uyg'otish, kasb-hunar turlari haqida tasavvurga ega bo'lish.
- 3) Mehnat jarayonida muloqot odobiga amal qilish.
- 4) Mehnatda do'stona munosabat va o'zaro yordam tushunchalariga ega bo'lish.
- 5) Moddiy-ma'naviy ehtiyojlarning maqsadli yo'naltirilganligi, mehnat orqali farovon turmush tarzini yuzaga keltirish haqidagi tushunchalarning paydo bo'lishi.
- 6) Kasb turlari va ularning hayotda zarurligini anglashda kino lavhalar, qo'g'irchoq teatri, mehnat faxriylari bilan uchrashuv orqali namoyon etish.
- 7) Amaliy ishlarda tadbirkorlik fazilatlarini "Kim oshdi savdosi" o'yinlari orqali shakllantirish.
- 8) Yozish, chizish, to'rt amalda (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) hisoblash va mustaqil bilim olish.
- 9) Boshlang'ich sinf qo'l mehnati (qog'oz, karton bilan ishlash, gazlama, tabiiy materiallar bilan ishlash, konstruksiyalash va modellashtirish, qishloq xo'jalik mehnati) ish turlaridan olingan bilimlarni amalda qo'llay olish tushunchalariga ega bo'lishi.
- 10) Qog'oz va kartondan buklash, qirqish, yelimlash ishlarini bajarish, har xil turdagi o'yinchoqlarning maketlarini bosqichma-bosqich yasash, konstruktorlik va modellashda mustaqil ijod qilish fantaziyasini boyitish. Applikasiya ishlarida diqqat va tasavvurni faollashtirish, ranglarni sezish qobiliyatini o'stirish.
- 11) O'ziga va o'z faoliyatiga baho berish tushunchalariga ega bo'lishi.
- 12) Jamoa, mustaqil o'qish, teleradio, informasion xabarlar to'g'risida tushunchalarga ega bo'lishi.
- 13) Internet tarmoqlaridan foydalanish to'g'risida tasavvur va tushunchaga ega bo'lishi.

14) Qo‘l mehnati, ishchi moslamalaridan to‘g‘ri foydalanish, materiallarni o‘lchash, belgilash, qismlarni yelimlash, tikish, o‘rash, detallarni yig‘ish, montaj qilish, bezash to‘g‘risida tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lish.

Umumiy o‘rta ta’limda qo‘yiladigan talablar majmuasi:

1) Moddiy ne‘matlar yaratishga qaratilgan aqliy va jismoniy mehnat qilishga intilish.

2) Mehnat qurollari, vositalari va jarayonlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq eta olish.

3) Texnik tafakkurni rivojlantirishga intilish.

4) O‘lchash-tekshirish asboblari, ma’lumot manbalaridan foydalana olish bilimlariga ega bo‘lish.

5) Mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarini belgilangan talablar bilan taqqoslay olish.

6) Texnika va texnologiyalar to‘g‘risida bilimlarni o‘zlashtirish.

7) O‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste’mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish to‘g‘risida bilimlarni egallash.

8) O‘quvchilarda bilimga intilish va mehnatga muhabbatda, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash.

9) Xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an‘analarini tiklash va rivojlantirish.

10) Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o‘rgatish, ulardan o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

11) Yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi, yangi texnika va jihozlarning qo‘llanilish sohalarini, zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda bilimlarni egallash.

12) O‘quvchilarda umummehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish,

ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy moyilliklariga ko'ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo'ladigan sifatlarni, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish.

13) O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash.

14) O'quvchilarning kasblar haqida, kasb tiplari, bo'limlari, guruhleri haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.

15) Kasb egalariga havas, intiluvchanlik xislatlarini shakllantirish.

16) Ijtimoiy did va dunyoqarashni kengaytirish, oilaviy hayot va turmushda kerak bo'ladigan milliy madaniyat va an'analarga mehr-muhabbat uyg'otish.

17) Ijtimoiy-iqtisodiy dunyoqarashni kengaytirish, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarini ongli ravishda tanlash.

18) Qo'l asboblari va mexanizasiyalashgan qo'l asboblari, dastgohlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida qo'yiladigan talablar majmuasi:

1) Kasbiy muhim yo'nalish, kasbiy qiziqish, kasb tanlash motivlarini shakllantirish.

2) Politexnik bilim, ko'nikma hamda kasb bo'yicha 2-ishchi razryadi talabida ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

3) Psixodinamik xususiyatlar, hissiy barqarorlik, moyillik, psixomotor doirasiga, reaksiya tezligiga talabchanlik shartli refleks, ishlab chiqarish tezligi, harakatlar koordinasiyasi bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

4) Kasbiy yo'nalganlik va qiziqishlar, mehnat motivlari, kasbiga ijobiy hissiy munosabatlar, mahoratni egallashni maqsad qilib qo'yish, professional mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirish.

5) Integrativ bilim va malakalar faoliyatiga oid ishlarni bajarishning umumiy yo'llari to'g'risidagi bilimlarni chuqur egallash.

6) Kasbiy moslashganlik, jamiyat oldidagi javobgarlik hissining o'sishi.

7) Irodaviy ta'sir etish qobiliyati, hissiy holatlarni boshqarish, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, talabchanlik, axloq-odob, hissiy sezgirlik. Kasbga kirishish,

kasbni egallash. Ijtimoiy yo‘nalganlik, kasbiy qiziqishlar, mehnatning ijtimoiy-kasbiy motivlari, ijtimoiy muammolarga munosabati. Mahoratni egallashning maqsadi, kasbiy nuqtai nazarning shakllanishi.

8) Ijodiy faoliyat motivlari, individual shaxsiy munosabatlar, kasbiy dunyoqarash. Kasbiy omilkorlik, axloqiy javobgarlik, bashorat qilish qobiliyati, turg‘unlik, mustaqillik, kasbiy madaniyat, faoliyatning shaxsiy uslubi bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirish.

9) Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.

10) Tafakkurni rivojlantirish

11) O‘lchash-tekshirish asboblaridan, ma’lumot manbalaridan foydalana olish.

12) Mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarini belgilangan talablar bilan taqqoslash.

13) Texnika va texnologiyalar to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste’mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish vositalarini o‘rgatish.

14) Ish boshqaruvchilik, homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirib borish.

15) Xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an‘analarini tiklash va rivojlantirish.

16) Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o‘rgatish, ulardan o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

17) Yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi, yangi texnika va jihozlarning qo‘llanilish sohalarini zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o‘rganishlarini ta’minlash.

18) O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish.

19) Ijtimoiy-estetik didi va dunyoqarashni kengaytirish, oilaviy hayot va

turmushda kerak bo'ladigan milliy madaniyat va an'analarga mehr-muhabbat uyg'otish.

20) Qo'l asboblari va mexanizasiyalashgan qo'l asboblari, dastgohlarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Oliy ta'limning bakalavriat bosqichida qo'yiladigan talablar majmuasi:

1) **Global kompetentlik.** Mustaqil hayot yo'lini topa olishi, jamiyatlardagi roli va o'rnini anglab yetishi.

2) **Ijtimoiy-madaniy kompetentlik.** Chuqur o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasini kengaytirish.

3) **Ijtimoiy-faoliyatga kompetentlik.** Fuqarolik, ijtimoiy-mehnat sohasidagi bilim va tajribalarni egallash.

4) **Axborot olishga kompetentlik.** Audio-video vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish.

5) **Kommunikativ kompetentlik.** O'zaro munosabatlar, ularning usullarini o'zlashtirish,

6) **O'quv-bilishga kompetentlik.** Maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish bo'yicha bilim va malakalar majmuasini egallash.

7) **Amaliy faoliyatga kompetentlik.** Harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo'nalish olish ko'nikmalarini shakllantirish.

8) **Global bilimlarga egalik.** O'z kasbi doirasida yetarli darajadagi bilimga ega bo'lish.

9) **Fanlarni integrasiyalay olishlik.** Zaruriy bilimlarni o'zlashtirishda o'qitiladigan barcha fanlarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligini ta'minlash.

10) **Konstruksiyalay olishlik.** Obyekt va jarayonlarning tuzilishi va o'zaro joylashuvlarini tuza bilishning tizimli faoliyati bo'yicha malakalarga ega bo'lish.

11) **Modellashtira olishlik.** Biror-bir hodisa, jarayon yoki obyektlar tizimini ideal yoki real modelini qurish va uni o'rganish orqali ularning xususiyatlarini

aniqlash.

12) **Loyihalay olishlik.** Obyekt va jarayonlarni rejalashtirish, modelini tuzish, ularning xususiyatlarini aniqlash.

13) **Bashorat qila olishlik.** Manbalar asosida istiqbolda aniqlash lozim bo'lgan natija xususida oldindan fikr yuritish.

14) **Motivasion xislatlarga egalik.** Kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

15) **Intellectual salohiyatga egalik.** Fikrlash, erudisiya, sezgirlik, ziyraklik, bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, tasavvur, ijodkorlik malakalarini shakllantirish.

16) **Irodaviylik.** O'zaro muloqotda chidam, faoliyatni amalga oshirishda, maqsadlarga erishishda, o'zligini rivojlantirish.

17) **Hissiylik.** Ta'lim oluvchilarning o'y-kechinmalari, o'quvchilarning yosh-fiziologik xususiyatlarini e'tiborga olish, hamfikrlik va ruhiy muhitni boshqara olish.

18) **Qobiliyatlilik.** Muayyan faoliyat yuzasidan layoqatlilik va ishni muvaffaqiyatli bajarishdagi o'ziga xos imkoniyatlarga egalik ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

19) **O'z-o'zini takomillashtira olishlik.** O'z faoliyatini tahlil qilish va baholash, o'z individualligini rivojlantira olish.

20) **Global fikrlashga egalik.** Intellectual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarni rivojlantirish.

21) **Tashkilotchilik.** Faoliyatni boshlab berish, tashkil etish, uyushtirish yoki rahbarlik qilish.

22) **Intizomlilik.** Muayyan xulq-atvor va tartib-qoidalarga hurmat hissi bilan qarash va unga amal qilish.

23) **Tashabbuskorlik.** Mehnat jamoasida kasbiy faoliyat doirasida ularni rivojlantirishga va takomillashtirishga qaratilgan g'oyalar bilan chiqish.

24) **Boshqaruvchanlik.** Kasbiy faoliyat jarayonini idora qilish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, o'rnak ko'rsatish, natijalarni tahlil qilish va baholash ko'nikma va

malakalarini shakllantirish.

25) **Mehnatsevarlik.** Kasbiy qiziquvchanlik, ijtimoiy faollik, tirishqoqlik, intizomlilik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, jo'shqinlik kabi kasbiy sifatlarni oshirish.

26) **Qiziquvchanlik.** Kasbiy yetuklikka erishish, insonning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarining hissiy namoyon bo'lishi.

Oliy ta'limning magistratura bosqichida qo'yiladigan talablar majmuasi:

1) Zaruriy bilimlarni o'zlashtirishda o'qitiladigan barcha fanlarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligini bilish.

2) Qiziquvchanlik. Kasbiy yetuklikka erishish, insonning tanlagan kasbi bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarining hissiy namoyon bo'lishi.

3) Ta'lim yunalishi asosida tanlagan mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish.

4) Ilmiy pedagogik, ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining asoslarini o'rganish.

5) Ta'lim menejmentini bilish.

6) Ilmiy tadqiqotning metodologik asoslarini bilish.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli shaxsga qo'yiladigan talablar majmuining tarkibiy qismi sifatida **kasbiy mahorat** ham belgilangan. **Kasbiy kompetentlik** – bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog kasbiy mahorati o'lchovchi muhim mezonlardan biri sanaladi hamda uning kompleksligini ta'minlaydi.

Soha mutaxassislari N.A. Muslimov, Z.Q. Ismoilova, N.Gaipova, O.Qo'ysinov, Q.Olimov, Sh.Abdurahmonov, M.Qodirovlarning fikricha, shaxsda kasbiy mahoratni shakllantirish quyidagi mazmunda amalga oshirilishi mumkin:

– ta'lim muassasalarida yoshlarning intellektual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarini rivojlantirishda kasbiy bilimlarga ega bo'lishlarida nazariy bilim va amaliy faoliyatga undovchi ma'lumotlarni berish, innovasion axborot texnologiyalarini o'rgatish, xorijiy tillarni o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratish, jarayon hamda tizimlarni tahlil qila olishga yo'naltirish, amaliy harakatchanlik va

kasbiy faoliyatiga moslashuvchanlik malakalarini shakllantirish;

– jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi barkamol shaxsni shakllantirish;

– kasbiy mahoratni belgilovchi fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish muammolarini uzluksiz va uzviy, bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta’minlash;

– ta’lim oluvchilarda mehnatsevarlik, qiziquvchanlik, intizomlilik, tashabbuskorlik, ijodiy fikrlash va tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish;

– ta’lim oluvchilarga o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab yetish, o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasini o‘zlashtirish, maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, axborot vositalari va texnologiyalari yordamida mustaqil ishlash, jamoada turli xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilish;

– ma’naviy, motivasion, intellektual va amaliy jihatdan o‘zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– bo‘lajak yetuk mutaxassislarda, ya’ni kasbiy mahoratni egallagan yoshlarda jamoatchilik, millatlararo do‘stlik, insonparvarlik, o‘zgalarni tushuna olish, har qanday vaziyatlarda muammolarni to‘g‘ri hal qila olish, har bir bajariladigan ishning natijasini oldindan ko‘ra olish va to‘g‘ri xulosalar chiqara olish, o‘z ustida doimiy ishlab yangiliklardan boxabar bo‘lib borish kabi fazilatlarni tarbiyalashdan iborat.

Kasbiy mahoratni shakllantirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotini yanada takomillashtirishda ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, zamonaviy texnika va texnologiyani muayyan sohalarga tatbiq etish, ulardan samarali foydalanish yo‘llari haqida to‘liq bilimga ega bo‘lishlari ochib beriladi. Zamonaviy mutaxassis

(jumladan, o'qituvchi-pedagog ham) o'z kasbiy faoliyati sohasidagi yangiliklarni egallab borishi, istiqboldagi taraqqiyot yo'nalishlari hamda yuzaga keluvchi muammolarni yechish yo'llarini ko'ra bilishi lozim. Kasbiy mahorat yoshlarni kasbga yo'naltirish va tayyorlashda kasb egalariga nisbatan hurmat hissini, kasbiy g'ururni shakllantirishdan iborat.

III BOB. BO'LG'USI O'QITUVCHI-PEDAGOGLARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHGA XIZMAT QILUVCHI SAMARALI TA'LIM USULLARI

3.1. Tadqiqot obyekti va unda ishtirok etgan respondentlar haqida umumiy ma'lumotlar

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali usullarni Buxoro davlat universiteti o'quv jarayoni misolida tadqiq qilish maqsadida o'tkazilgan ushbu bakalavrlilik tadqiqot ishida «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi talabalari va «Psixologiya» magistratura mutaxassisligi tadqiqot bazasi bo'lib xizmat qildi. So'rovlarda ishtirok etgan respondentlar soni jami 30 nafar.

3.1-jadval.

Respondentlar	Jinsi			
	Yigit <i>n=14 (46,7%)</i>		Qiz <i>n=16 (53,3%)</i>	
	<i>soni</i>	%	<i>soni</i>	%
Bakalavriat talabalari (n=15)	9	30	6	20
Magistratura talabalari (n=15)	5	16,7	10	33,3

Tadqiqotda ishtirok jami respondentlarning 14 nafari yigitlarni, 16 nafari esa qizlarni tashkil etadi. Jumladan, Buxoro davlat universiteti «Pedagogika» fakulteti «5140900 – Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishini 2011-2012 o'quv yilida tamomlayotgan talabalardan tashkil topgan respondentlar guruhida: yigitlar – 30%, qizlar – 20%; «Magistratura» bo'limi «5A140901 – Psixologiya » mutaxassisligini 2011-2012 o'quv yilida 1-bosqichda tahsil olayotgan talabalardan tashkil topgan respondentlar guruhida: yigitlar – 16,7%, qizlar – 33,3%ni tashkil etdi (3.1-jadvalga qarang).

3.2-jadval.

Respondentlar	Yoshi							
	20-21 yosh <i>n=3</i>		22-23 yosh <i>n=18</i>		24-25 yosh <i>n=6</i>		26 dan katta <i>n=3</i>	
	<i>soni</i>	%	<i>soni</i>	%	<i>soni</i>	%	<i>soni</i>	%
Bakalavriat talabalari	2	6,7	9	30	3	10	1	3,3

(n=15)								
Magistratura talabalari (n=15)	1	3,3	9	30	3	10	2	6,7

Shuningdek, tadqiqotimizda ishtirok etgan respondentlarning yosh ko'rsatkichlari jihatidan tahlil qilar ekanmiz, u quyidagi natijalarni ko'rsatdi. Jumladan, mazkur tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilardan 20-21 yoshli talabalar «Bakalavrlar» guruhida – 6,7%ni, «Magistrlar» guruhida esa – 3,3%ni tashkil etdi. 22-23 yoshli bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglar esa sinaluvchilarimizning har ikkala toifali guruhida – 60,0%ni tashkil qildi.

«Bakalavrlar» guruhining – 10,0%i, «Magistrlar» guruhining ham 10,0%i 24-25 yoshli bo'lajak o'qituvchi-pedagoglardan iborat ekan. Shuningdek, mos ravishda, 3,3%; 6,7%%ni 26 yoshdan katta respondentlar tashkil etdi (3.2-jadvalga qarang).

Shaxsning, birinchi navbatda, bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogning kompetentligini aniqlash uchun turli metodlar ishlatiladi. Bular o'sha biz bilgan ko'plab shaxsning muloqatga kirishuvchanlik sifatlarini aniqlash metodlaridir. Lekin ularning ko'pchiligi nazariy nuqtai nazardan diagnostik ishlarni amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq emas. Barcha metodik usullar ichida, aynan, shaxsning o'zgaralar bilan tez va aniqlik bilan ishchanlik hamda shaxsiy muloqotni o'rnatish orqali boshqalarga ta'sir ko'rsata olish malakasini aniqlovchi KOS-1 metodi tadqiqotchilarda borgan sari ko'proq ishonch uyg'otmoqda. Metodning qulayligi shundaki, u ko'p vaqtni olmagan holda (10-15 daqiqa) respondentdan 40 ta savolga «ha» yoki «yo'q» deb javob berishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik nafaqat bo'lajak mutaxassis tomonidan o'zini-o'zi anglashi (bilishi), balki uning autopsixologik kompetentsiya bilan ham bog'liq.

Ma'lumki, **autopsixologik kompetentsiya** – bu shaxsdagi shunday malakalar majmuiki, ular mutaxassisni o'z kasbiy hamda shaxsiy sifatlarini diagnostikalash, ya'ni o'zini o'zi diagnostika qilish, o'zini o'zi tuzata olish (korreksiyalash), o'zini o'zi takomillashtira olish, o'ziga o'zi motivatsiya bera olish, har qanday

ma'lumotdan samarali foydalana olish, psixolingvistik kompetentsiyalar bilan bog'liq qobiliyat sanalib, u quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi.

3.5-jadval. Autopsixologik kompetentsiyaning bosqichlari

Autopsixologik kompetentsiyaning bosqichlari	O'zini-o'z rivojlantirish motivi	O'zi haqidagi bilimlar	O'zlikni o'zgartirish ko'nikmasi
Anglanmagan autonokompetentsiya	–	–	–
Anglangan autonokompetentsiya	–	–	–
Anglanmagan autokompetentsiya	+	+	–
Anglangan autokompetentsiya	+	+	–

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarning kasbiy qobiliyatlaridagi kuchli va kuchsiz tomonlari diagnostika qilinganda quyidagi manzarining guvohi bo'lindi (3.6-jadvalga qarang).

3.6-jadval natijalaridan ko'rinadiki, ekspertlarning fikricha, sinaluvchilarning 19 nafarida, ya'ni bakalavrlardan – 7 nafar, magistrlardan – 12 nafar talabada kuchli darajada «kasbiy bilim va malaka» shakllanganligini ko'rish mumkin. Respondentlar orasida «ijtimoiy va kommunikativ bilimlar»i kuchli bo'lgan 75 foiz sinaluvchi (mos ravishda – 9; 11) mavjud ekan. Shuningdek, «shaxsiy individual qobiliyatlar»i kuchli talabalar – mos ravishda 10; 13 (23) nafarni tashkil etsa, faqatgina 11 nafar bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogda «rahbarlik qobiliyati»ning kuchli jihatlarini ko'rish mumkin.

3.6-jadval. Bo'lg'usi-o'qituvchi pedagoglar kasbiy qobiliyatlarining kuchli va kuchsiz jihatlarini

Qobiliyatlar	Kuchli tomonlar / +		Kuchsiz tomonlar / –	
	bakalavr	magistr	bakalavr	magistr
Kasbiy bilim va malaka	7	12	8	3
Ijtimoiy va kommunikativ bilimlar	9	11	6	4
Shaxsiy individual qobiliyatlar	10	13	5	2
Rahbarlik qobiliyati	5	6	10	9

Intellectual qobiliyat, ishchi usullar	11	11	4	4
Boshqa qobiliyatlar	7	8	8	7

O‘zidagi «intelektual qobiliyat va ishchi usullar»ning mavjudligi va kuchliligi bilan 22 nafar (73,3%) talaba qolgan sinaluvchilardan farqlanadi. Kasbiy mukammallikni belgilab beruvchi yana qator «boshqa qobiliyatlar» ham bo‘lib, bu sinaluvchilarimizning teng yarmida o‘z ifodasini opgan.

3.7-jadval. Kasbiy kompetentlikni shakllanishiga to‘siq bo‘luvchi shaxs sifatleri reytingi

№	Shaxs xislatlari	Bakalavr n=15	Magistr n=15
1	O‘z-o‘zini boshqara olmaslik	40	50
2	Shaxsiy qadriyatlarining shakllanmaganligi	40	20
3	Shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi	36,7	13,3
4	Kamolotga intilishning yo‘qligi	20	50
5	Muammoni yecha olmaslik	50	10
6	Ijodiy yondoshuvning yetishmasligi	20	20
7	Itoatidagi o‘quvchilarga ta’sir etolmaslik	50	50
8	Boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik	33,3	23,3
9	Boshqaruv malakasining sustligi	50	26,7
10	Itoatidagi o‘quvchilarga mehnat malakasini shakllantira olmaslik	50	43,3
11	Jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat	16,7	16,7

3.7-jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, har ikkala guruh respondentlari «o‘z-o‘zini boshqara olmaslik» xislatini boshqaruvchilik ko‘nikmasini shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi mezon sifatida baholashar ekanlar. Chunki bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagogda bunday xislatning mavjudligi yoki qisman shakllanganligi, uning pedagog faoliyatini hayajon va zo‘riqishlar asosida tashkil bo‘lishini ta’minlaydi. Bunday sharoitda xulqda aniq maqsadning yo‘qligi nafaqat akademik guruh faoliyatiga, balki o‘qituvchi-pedagogning sog‘ligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, «Bakalavrlar» guruhi a’zolarining baholashlaricha, «shaxsiy qadriyatlarining shakllanmaganligi» hamda «shaxsiy maqsadning aniq ifodalanmaganligi» xislatlari ham kasbiy kompetentlik shakllanishiga ta’sir

ko'rsatuvchi salbiy omillar vazifasini o'taydi. Chunki, pedagog qaysi toifa o'qituvchi bo'lmasin doimo qaror qabul qilish vaziyatida bo'ladi. Vaholanki, qaror samarasi shaxsiy qadriyatlar, kasbiy va hayotiy tamoyillarga asoslanadi, ularning shakllanganligi bo'lg'usi o'qituvchi-pedagog faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Masalan, **ta'limdagi zamonaviy boshqaruv** – samaradorlik, talaba imkoniyatlarini ochishga ko'mak, ta'lim muassasasiga yangilik olib kirishga moyillik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Mustahkam qadriyat va tamoyillarga asoslanmagan bo'lajak o'qituvchi-pedagog beqarorlik va maqsad yo'lida irodasizlikni namoyon etadi. Zamonaviy o'qituvchi muhimni nomuhimdan ajrata olishi, mavjud imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay bilishi kerak. Ta'lim muassasasi maqsadini chuqur anglash yo'lidagi birinchi qadam pedagogning o'z shaxsiy maqsadlarini yaxshi tushunib yetishidir. O'z maqsadini aniq bilgan o'qituvchigina uning faoliyatiga qo'yilayotgan talablarni jonu diliga singdira olishi mumkin. Shaxsiy maqsadning noaniqligi maktab (lisey, kollej) manfaati yo'lidagi maqsadlarni ham anglab olishga xalaqit beradi. Aniq maqsadning yo'qligi shaxsning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini pasaytiradi va demak, bunday pedagog, o'zga (jumladan, o'quvchi)larning muvaffaqiyatini ham his eta olmaydi.

«Magistrlar» guruhi sinaluvchilarining qayd etishlaricha, «**kamolotga intilishning yo'qligi**» xislatini mavjud emasligi o'z ustida ishlashdan bosh tortgan o'qituvchi-pedagogni qaltis vaziyatdan himoyalashiga, imkoniyat va qobiliyatlarini rivojlantirish ustida ishlamasligiga hamda odat tusiga kirgan xatti-harakatlari dorasidan chiqolmasligiga sababchi bo'ladi.

«**Muammoni yecha olmaslik**» kabi shaxsiy xislatning yo'qligi, «Bakalavrlar» guruh a'zolarining fikricha, ayrim o'qituvchi-pedagoglarni muammo ustida sifatli, muntazam va aql-zakovat bilan ishlay olmasligiga turtki bo'ladi. Chunki bu xislatning yo'qligi bir vaqtning o'zida bo'lajak o'qituvchi-pedagogda vazifa maqsadini aniqlash, ma'lumot to'plash, rejalashtirish va nazoratni amalga oshirish malakasiga ega emasligini yoritib beradi. Shu bois, mazkur toifa o'qituvchi oldida hal etilmagan masalalar to'planadi va uning

muammoni hal etish imkoniyati cheklanib qoladi. Shu bilan bir qatorda har ikkala guruh sinaluvchilarning baholashlaricha o'qituvchi-pedagogdagi **«ijodiy yondashuv»** xislatining yetishmasligi bir qator salbiy munosabatlar shakllanishida muhim omil vazifasini o'taydi. Xususan, innovasiyaga moyilligi bo'lmagan o'qituvchi yangi g'oyalarni taklif etolmaydi, o'quvchilarga o'qishga bo'lgan ijodiy yondashuvni uyg'ota olmaydi. Bunday pedagog tajribadan, sinf (akademik guruh) hayotiga yangilik kiritishdan o'zini chetga oladi yoki yangiliklarga befarq bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha yuksak ijodiylik to'siqni yengib o'tishni va qiyinchilikka bardosh berib maqsadga intilishni taqozo etadi.

«Itoatidagi o'quvchilarga ta'sir etolmaslik» ham salbiy holat sifatida baholanib, xislatning shakllanganligini har ikkala guruh respondentlari e'tirof etishgan bo'lib, ularning fikricha, o'qituvchi o'z qo'li ostidagi o'quvchilarga ta'sir etishi lozim. Lekin, ayrim pedagog o'z o'quvchilariga suyanolmaydi va buning o'rniga ular haqida salbiy fikrda yuradi. Bunday pedagog o'z intilishida muntazam emas, atrofdagilar bilan yaqin muloqotga kirishmaydi va o'z ichki dunyosini yaxshi ifoda etolmaydi.

«Bakalavrlar» guruhi respondentlari (33,3%) fikricha, **«boshqaruv faoliyati xususiyatini yaxshi bilmaslik»** o'z faoliyatlarini samarali tashkil etishda to'siq bo'lishi mumkin ekan. Chunki, boshqaruv faoliyati samarasi haqida ma'lumotga ega bo'lmas ekan, bo'lajak o'qituvchi-pedagog o'z malakasini shakllantira olmaydi. Boshqaruvga o'z yondashuvini tahlil etolmaydigan o'qituvchi fikr va topshirig'ini ham o'quvchiga tushuntirishi qiyin. Bunday pedagog o'quvchilari u haqda nima deb o'ylashi bilan qiziqmaydi. Bu toifa o'qituvchi-pedagog o'z o'quvchilarini tashabbusga chaqirishi mushkul, ayniqsa, ularga o'quv topshiriqlarini berishga qiynalishadi. Yana ushbu guruh vakillarining e'tirof etishlaricha pedagogdagi **«boshqaruv malakasining sustligi»** ham salbiy omildir. Shuningdek, mazkur guruh sinaluvchilari **«itoatidagi o'quvchilarda mehnat malakasini shakllantira olmaslik»** ham salbiy voqeyliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Tajribalardan ko'rinadiki, har bir pedagog vaqti-vaqti bilan ustoz

sifatida o'quvchisiga ish xususiyatini o'rgatadi. O'quvchining kasbiy qobiliyatini rivojlantira olmaydigan pedagog, o'z sinfi (akademik guruhi) mehnatini yuksak darajaga olib chiqolmaydi. Bu holda o'quvchi o'z mehnati natijasi haqida ustozdan hech qanday fikr eshitmaydi, o'qituvchining bahosi va tavsiyasi rasmiy tus oladi.

Tadqiqotda ishtirok etgan har ikkala toifa guruh vakllarining baholashlaricha (33,4%), «**jamoa tashkil etishdagi sust qobiliyat**» maqsadga erishish uchun bo'lajak o'qituvchi-pedagogdan o'quvchilar bilan birlashishni va ularning malakasidan foydalanishni taqozo etadi. Sinf o'quvchilari (akademik guruh a'zolari) malakali va unumli jamoaga aylanmasa pedagoglik faoliyati qiyin kechib, ta'lim samaradorligini tushishini yuzaga keltiradi. Shu bois, bunday sinf (guruh)larda sifatli ta'lim mexanizmlari shakllanmaydi va nosog'lom muhit hukm suradi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlikning takomillashuvi bevosita o'qituvchilarning o'z faoliyati muvaffaqiyatiga bergan baholariga, ya'ni oldilarida turgan muammolarni yechishlaridagi shaxsiy imkoniyatlarga va qiyinchiliklarni bosib o'tishlariga bog'liqdir. Shu bois bo'lajak o'qituvchi-pedagoglar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, 75% talabalar o'z imkoniyatlarini yuqori baholagan bo'lsalar, 25%i o'z imkoniyatlariga aniq baho berishga ikkilanishgan. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, har ikkala guruh bo'lajak o'qituvchi-pedagoglarning aksariyat qismi o'z imkoniyatlari va muvaffaqiyatlarini bir-biriga yaqin hamda o'xshash baholashdi. Bu esa, bugungi kun talabasida kelajakdagi faoliyati yuzasidan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi o'z imkoniyatlarini ko'ra bilish va mustaqillikning muhim o'rin tutishidan dalolat beradi.

3.2. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali ta'lim usullari va eksperimental tadqiqot orqali erishilgan natijalar tahlili

Ta'lim maqsadlarini amalga oshirish bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan ta'lim beruvchilar o'rtasida bo'ladigan birgalikdagi murakkab jarayonda **ta'lim usuli** muhim vazifani bajaradi.


Usullar natijaga erishishni ta'minlaydi. Ushbu ta'lim davridan chiqishda ta'lim oluvchi quyidagilarni egallaganiga qarab shakllanadi:

- 1) **bilish**;
- 2) **uddalash**;
- 3) **qadrlash** (qadriyatli yo'nalishlar va ko'rsatmalar, motivatsiya).

Ta'limning boshlang'ich davrida, ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchining maqsadlari, qoidaga binoan, bir biridan uzilgan holda bo'ladi (3.1-chizmaga qarang). Shuning uchun, avvalo, pedagogning maqsadini ta'lim oluvchiga yetkazishi kerak bo'ladi. Ta'lim oluvchi, ushbu maqsadlarni: (Q) abul qilishi va tushunishi; (A) nglashi va xotirada olib qolishi; (A) malda qo'llashi lozim.

Usullar ta'lim mazmunini amalda qo'llashni ta'minlaydi, bunda ta'lim beruvchi faoliyatini tashkil etish yo'li – **dars berish usullari**dir, ta'lim oluvchining faoliyati esa – **o'rganish usullari**dir.

Agar o'qituvchining va ta'lim oluvchining maqsadlari bir-biriga to'g'ri kelgandagina birgalikda faoliyat olib borishi mumkin bo'ladi. Bunday faoliyat **subyekt** (ta'lim beruvchi) – **obyekt** (ta'lim oluvchi) ko'rinishida emas, balki **subyekt-subyekt** xarakterini oladi.



Q - qabul qilish va tushunish

A - anglash va xotirada saqlash

A - amalda qo'llash

3.1-chizma. Ta'lim usulining modeli

Maqsadlar, pedagogning ta'lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatida vositalar yordamida amalga oshiriladi, **usullar** esa, ularni amaliy bajarilishini ta'minlaydi.

Dars berish usullari – ta'lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir, **o'qish usullari** esa ta'lim oluvchining faoliyatini tashkil qilish vositasidir.

Biz esa usullar tizimini, ta'lim maqsadlariga erishish bo'yicha o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilish uslublarini sanab chiqamiz va ularni quyidagi belgilari bo'yicha guruhlarga bo'lamiz:

Birinchi guruh – o'quvchilarning o'zlashtirish, tushunib yetish, bilimni mustahkamlash bo'yicha **perseptiv** (perseptiv – o'zlashtirish) ish faoliyatini ta'minlaydigan, tayyor holatda o'quvchilarga bayon qilingan o'qitish va bilim olish usullari:

- ma'ruza, hikoya, tushuntirish;
- namoyish, illyustrasiya, videousul.

Ikkinchi guruh – o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani algoritm (namuna) bo'yicha o'quvchining bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olish usullari:

- kitob bilani ishlash;
- laboratoriya usuli;
- mashqlar.

Uchinchi guruh – ta'limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta'lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta'minlovchi dars berish va o'qitish usullari:

- o‘quv suhbat;
- davra suhbat;
- bahs;
- miyaga hujum (breynstorming);
- ishbilarmon yoki rolly o‘yin;
- «pinbord».

To‘rtinchi guruh – o‘quvchilar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar:

- muammoli topshiriqlar usuli;
- individual (amaliy) usul;
- loyihalar usuli.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti sohasiga ilg‘or texnologiyalarning kirib kelishi va jahon standartlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarurati tashkilot personalini boshqaruviga oid yangi talablar va uslublarni o‘zlashtirishni ham nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, oliy ta‘lim muassasalarida “**kasb ta‘limi (iqtisodiyot)**” mutaxassisligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarni pedagogika sohasiga oid zarur malakalar bilan qurollantirish va kasbiy kompetentligini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib qoladi. O‘qituvchi-pedagoglarni tayyorlashda pedagogik mahoratga oid zarur malakalarni shakllantirish zamonaviy boshqaruv uslublari va ularni o‘quvchilarda shakllantirishning pedagogik texnologiyalaridan xabardor bo‘lish zaruratini qo‘yadi. Hozirga kelib o‘qituvchi-pedagoglar tayyorlashdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish tadbirlari esa talaba shaxsining va guruhlarda mashg‘ulotlarni tashkil etishning psixologik jihatlarini hisobga olgan taqdirdagina katta samara berishi mumkin. Shu munosabat bilan quyida shaxsda kasbiy kompetentlikni shakllantirish borasidagi samarali ta‘lim texnologiyalari haqida ma‘lumot berib o‘tamiz. Hozirga kelib, shaxsda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga xizmat oid quyidagi ta‘lim uslublari farqlanadi (3.8-jadvalga qarang).

3.8-jadval.

№	Ta’lim texnologiyalari	Ta’lim uslullari
1.	Kasbiy kompetentlikni shakllantirish uslubi	Keyslar
2.		Muammoli vaziyatlar muhokamasi
3.		Rolli o‘yinlar
4.		Psixologik trening
5.		Xizmat mavzulari yuzasidan o‘yinlar
6.		Rejalashtirilgan ta’lim
7.		O‘quv filmi
8.		Televideniye orqali ma’ruza
9.		Ma’ruza
Manba: Mahmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi. T., 2006. – 230 b.		

Sanab o'tilgan ta'lim uslublari samarasi quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanishi va ushbu maqsadlarga muvofiq tanlab olinishi mumkin:

- o'zlashtirilgan bilimlar;
- muammoga yondoshuvning o'zgarishi;
- muammoni yechish mahorati;
- muloqot mahoratining o'sishi;
- masalani hamkorlikda hal etish sifati;
- bilimning uzoq muddat saqlanishi.

Ta'kidlab o'tilgan ta'lim uslublari orasidan oldinda turgan vazifa va mehnat sohalarini hisobga olgan holda u yoki bu shaklini qo'llash o'rinlidir. **Keys uslubi (1)** muammoli vaziyatlarni yaxshi tushunishga, masalani har tomonlama va o'rinli tahlil etishga, muammo haqida ma'lumot to'plashga o'rgatadi. Keyslarni qo'llashdagi asosiy masala shaxsning yangi bilimga ega bo'lishi va uning aqliy sohasini faollashtirishdir.

Psixologik mazmun kasb etuvchi boshqa uslublar esa ta'lim jarayoniga talabanning hissiy-irodaviy va xatti-harakatlari sohasini jalb etadi. Shuning uchun, u yoki bu ta'lim uslubini qo'llash avvalambor, talaba shaxsining qay yo'nalishda o'zgarishini dolzarb deb hisoblashimizga bog'liq. Masalan, kasbiy ta'lim yunalishidagi mutaxassisliklar doirasida talabanning kasbiy mahorati va o'zgalarni ushbu kasbga o'rgatish qobiliyati rivojlangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, har

qanday insoniy munosabatlar tizimida yuqori mavqega ega bo'lish zarurati bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglarning muloqotga oid va yetakchilik qobiliyatlarining rivojlanishini ham nazarda tutadi. Bo'lajak pedagog rasmiy munosabatlar tizimidagi takomillashgan ko'nikmalar bilan birga, norasmiy munosabatlar tizimiga ta'sir etish va o'quvchilarni o'z ketidan yetaklovchi yetakchilik xislatlari ham namoyon bo'lishi lozim.


Kasbiy kompetentlikni shakllantirish, jamoadagi psixologik muhitni barqarorlashtirish ko'nikmalari, inson resurslarini bilish va ularni boshqarish malakalarini rivojlantirish – bularning hammasi bo'lajak o'qituvchi-pedagog shaxsini shakllantirishdagi muhim ta'lim yo'nalishlaridir.

Kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi auditoriya (sinf)ni boshqaruv mahoratini shakllantirishda ayniqsa **psixologik trening uslubi (2)** alohida o'rin egallaydi. Trening mashg'ulotlarida xizmat yuzasidan yuzaga keluvchi turli muammoli vaziyatlarni sun'iy tarzda yaratish va ushbu vaziyatlarda samarali harakat qilish uslublariga o'rgatish imkoniyati yuzaga keladi. Masalan, ta'lim muassasasi miqyosida uchrashi mumkin bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi biron muammoli vaziyat tahlil mavzusiga aylanishi mumkin. Trening mashg'ulotlari doirasidagi imkoniyatlardan yana biri – muhokama qilinayotgan muammolarni hal etish jarayonini videotasvirga tushirish va masala yechimini guruh bilan birgalikda izlashdan iboratdir. **Videotasvir uslubini (3)** qo'llash trening ishtirokchilarining muammoli vaziyatdagi harakatlarini qayta va qayta ko'rish imkonini beradi. Tasvirga tushirilgan holatni vaqtincha to'xtatish (pauza) hisobiga ishtirokchilarning izohlarini yig'ish va maqbul yechim variatini tanlab olish imkoniyati tug'iladi. Videotrening kabi interfaol ta'lim uslubi nafaqat muammoli vaziyatlarda maqbul harakatlarni shakllantirish, balki ishtirokchilarda o'z-o'ziga ishonchning oshishi kabi ijobiy ta'sirga ham ega. Interfaol uslublarni qo'llash va bunda texnik vositalardan foydalanish zarur malakalarni qisqa fursat davomida rivojlantirish imkonini beradi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan pedagogik muomalani talab darajasida tashkil etishida uning shaxsiy sifatlari ham muhim o'rin tutadi, ular quyidagilardan iborat.

1. O'zini axloqiy-irodaviy jihatdan namoyon etishi.
2. O'qituvchi shaxsidagi umumiy ichki va tashqi madaniyat.
3. Kasbiy pedagogik yo'nalganlik, qobiliyatlar, takt sifatlarining yaqqol namoyon etilishi.

Shu bilan birga axloqiy-irodaviy sifatlarni majmuasi bo'lishi talab qilinadi (№3-chizmaga qarasin).



№3-chizma.

Umumiy ichki madaniyat deganda:

- 1) Yuqori intellekt;
- 2) qiziquvchanlik;
- 3) nutq madaniyati;
- 4) barqaror ma'naviy qiziqishlar va;
- 5) mantiqli tafakkur nazarda tutiladi.

Tashqi madaniyat deganda esa:

- 1) tashqi ko'rinish (kiyim, o'zini tutish) va;

mimika hamda pantomimika kiradi.

Pedagogik yo'nalganlikka:

- 1) mehnatga nisbatan ijodiy, novatorlik munosabati;
- 2) o'z vazifalarini chuqur bilish, unga qiziqish;
- 3) o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan ichki ehtiyoj (mustaqil ta'lim va tarbiya);
- 4) bolalarni sevish va;
- 5) pedagogik optimizm kabilar kiradi.

Bundan tashqari, o'qituvchi uchun pedagogik qobiliyatlarning majmuasi bo'lishi unda kasbiy pedagogik kompetentlik shakllanishining asosini tashkil etadi

- 1) **pertseptiv**, ya'ni o'quvchilarni tushunish qobiliyati;
- 2) **didaktik**, ya'ni zarur axborotni uzata olish qobiliyati;
- 3) **tashkilotchilik**, ya'ni faoliyatning turli ko'rinishlariga bolalar va kattalarni jalb qila olish qobiliyati;
- 4) **kommunikativ**, ya'ni munosabatlarni to'g'ri o'rnatish qobiliyati;
- 5) **akademik**, ya'ni ijodiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyati;
- 6) **emotsional barqarorlik**, o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati kiradi.

Pedagogik takt – har bir istalgan vaziyatda, har bir alohida holatda eng to'g'ri qaror qabul qila olishdir.

Pedagogik taktning alohida belgilari mavjud bo'lib, ular o'qituvchining o'rnini belgilashda muhimdir (5-rasmga qarang).



O'qitish va tarbiyalash jarayonida yosh avlod ijtimoiy tajribaning asosiy elementlarini o'zlashtiradi. Bular bilim, faoliyat usullari, ijodiy faoliyat tajribasi va emotsional qadriyatli munosabat mazmunidir. Tajriba kitoblar, o'quv dasturlari, zarur metodik adabiyotlar orqali o'zlashtiriladi. Ushbu o'quv materiallari mukammal bo'lishi mumkin, biroq ular o'qituvchi bilan jonli pedagogik muloqot o'rnini bosa olmaydi. Barcha zarur o'quv vositalari bilan o'quv jarayoni tashkil etilishi o'zining yuqori samaradorligiga faqatgina o'qituvchi va o'quvchining psixologik interaktiv hamkorligi, jonli, konstruktiv muloqoti natijasida erishadi.

O'qituvchi shaxsining imkoniyatlari, ta'sir doirasi qanchalik keng bo'lsa, o'z tarbiyalanuvchisining shaxs sifatida shakllanishiga shunchalik ko'p ijobiy ta'sir qiladi. O'qituvchi faoliyati uchun didaktik va kommunikativ qobiliyatlar muhimdir. Didaktik qobiliyatlar ma'lum fan doirasidagi bilimlarni o'quvchilarga etkazishda namoyon bo'ladi. Predmetni bilish va uni qanday qilib o'quvchiga etkazishni bilish bir-biridan farq qiluvchi sohalardir.

Samimiylik, emotsionallik, tovushning boy intonatsiyasi, ifodali harakatlar va mimika – bularning barchasi ushbu qobiliyatning namoyon bo'lishi uchun asos vazifasini bajaradi.

Ijobiy pedagogik natijalarga erishish:

- ❖ o'z-o'zini tushunish va anglash qobiliyatini rivojlantirishga;
- ❖ ma'naviy-axloqiy tanlash paytida o'ziga butun mas'uliyatni olishga tayyorgarlikka;
- ❖ o'z-o'zini ifodalash va ta'kidlash ehtiyojini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

O'quvchilar bilan muomala o'rnatishga qaratilgan kommunikativ qobiliyatlarga: empatiya, o'quvchining ma'naviy dunyosini birgalikda his etish; o'qitiladigan fan mazmuni hamda o'z sezgi va kayfiyatlarini aniq ifodalay olish kiradi .

Maxsus psixologik tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'quvchining dars materialini o'zlashtirishi ko'p hollarda uning o'z-o'zini baholashiga bog'liq. O'quvchining o'z-o'zini baholashi yuqori (lekin me'yordan ortiq darajada emas) bo'lsa, u jamiyat va atrofdagilar uchun ma'lum ahamiyatga egaligini his etsa, darslarni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir etadi. Bu esa kasbiy kompetentlikning natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot farazida ilgari surilgan gipotezani asoslash hamda tadqiqot vazifalarini amalga oshirish maqsadida "K.N.Tomasning ziddiyatli vaziyatlarga javob reaksiyasini namoyon etish vositalarini baholash metodikasi" hamda S.D.Yakushevaning "Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o'rganish testi"dan foydalandik.

Sinaluvchi-o'qituvchilar bilan amalga oshirgan ikkinchi eksperimental ishimiz bu "Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini o'rganish testi" asosida amalga oshirildi.

Ko'rsatma: Sizdan 40 ta savolga javob berish so'raladi. Shuni nazarda tuting, savollar qisqa va zaruriy tafsilotlarni o'zida aks ettirmagan. Shuning uchun odatiy vaziyatlarni ko'z oldingizga keltiring. O'ylashga ko'p vaqt sarflamang, zudlik bilan javob bering.

Ehtimol, ba'zi savollarga javob berishingiz qiyin bo'lar. Bunda o'zingizga ma'qul bo'lgan javobni belgilang. Javob berishda savolning so'zlariga e'tibor bering. Savollarga javob berib, yasama ijobiy taassurot qoldirishga harakat qilmang. Javoblar emas, balki yo'nalishlar bo'yicha savollarga berilgan javoblarning ballari yig'indisi muhimdir.

Shunday qilib, agar savolga sizning javobingiz ijobiy bo'lsa (siz shunga rozisiz), ushbu savol nomeri oldiga - "ha"; agar javobingiz salbiy bo'lsa (siz rozi emassiz) - "yo'q" deb yozing.

1. Doimiy muloqot qiladigan do'stlaringiz ko'pmi?
2. O'z fikringizga qo'shiladigan do'stlaringiz ko'pmi?

3. Do'stlaringiz tomonidan etkazilgan dilsiyohlik sizni uzoq bezovta qiladimi?
4. Paydo bo'lgan keskin vaziyatdan chiqib ketish sizda qiyin kechadimi?
5. Sizda turli kishilar bilan yangi tanishuvlar o'rnatishga intilish bormi?
6. Ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?
7. Sizga odamlardan ko'ra kitoblar yoki boshqa mashg'ulotlar bilan band bo'lish maroqlimi?
8. Rejalaringizni amalga oshirishda to'siqlar uchrasa, siz engilgina ulardan voz kechib keta olasizmi?
9. Yoshi sizdan ancha ulug' bo'lgan kishilar bilan engil muomalaga kirisha olasizmi?
10. Do'stlaringiz bilan turli o'yinlar va ko'ngilxushliklarni o'ylab topish va tashkil etishni xush ko'rasizmi?
11. Siz uchun yangi jamoaga kirishib ketish qiyinmi?
12. Siz bugun bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni boshqa kunlarga tez-tez qoldirib turasizmi?
13. Notanish kishilar bilan tez muloqotga kirishib keta olasizmi?
14. Do'stlaringiz sizning aytganlaringiz bo'yicha ish tutishlariga erishishga intilasizmi?
15. Yangi jamoada tez moslashasizmi?
16. Do'stlaringiz o'z va'dalari, majburiyatlari, vazifalarini bajarmaganlarida ham sizda ular bilan ziddiyatlar bo'lmasligi rostmi?
17. Qulay vaziyat paydo bo'lganda yangi kishi bilan tanishish va suhbatlashishga intilasizmi?
18. Muhim masalalarni hal etishda siz har doim ham tashabbusni o'z zimmangizga olasizmi?
19. Atrofingizdagilar sizga erish tuyuladimi va yolg'iz qolishni istaysizmi?
20. Notanish sharoitda mo'ljal olishingiz qiyin kechadimi?
21. Doimo odamlar orasida bo'lish sizga yoqadimi?

22. Boshlagan ishingizni tugata olmagan paytda jahlingiz chiqadimi?
23. Yangi inson bilan tanishish uchun tashabbus ko'rsatish talab etilsa, noqulaylik, siqilishni his etasizmi?
24. Do'stlar bilan muntazam ko'rishish sizni toliqtiradimi?
25. Jamoaviy o'yinlarda ishtirok etishni yoqtirasizmi?
26. Do'stlaringiz uchun muhim bo'lgan masalalarni hal etishda har doim tashabbus ko'rsatasizmi?
27. Siz uchun yaxshi tanish bo'lmagan kishilar orasida o'zingizni qat'iyatsiz sezasizmi?
28. Haqligingizni isbotlashga har doim ham harakat qilmasligingiz rostmi?
29. Yaxshi tanish bo'lmagan do'stlar guruhiga yaxshi kayfiyat ulashish siz uchun qiyin emas, deb hisoblaysizmi?
30. Maktabdagi jamoat ishlarida ishtirok etganmisiz?
31. Do'stlaringizni ko'paytirmaslikka harakat qilasizmi?
32. Agar do'stlaringiz tomonidan ma'qullanmasa, o'z fikr yoki qaroringizni himoya qilishga intilmasligingiz rostmi?
33. Notanish kishilar orasida o'zingizni erkin his eta olasizmi?
34. Do'stlaringiz uchun turli tadbirlarni tashkil qilishga bajonudil kirishasizmi?
35. Katta jamoa oldida nimanidir gapirish lozim bo'lganda, siz o'zingizni bamaylixtir va ishonarli tarzda tuta olmasligingiz rostmi?
36. Rasmiy uchrashuvlarga kech qolish sizda tez-tez yuz berib turadimi?
37. Do'stlaringiz ko'pligi rostmi?
38. Do'stlaringizning diqqat markazida doimo bo'lasizmi?
39. Uncha yaqin tanish bo'lmagan kishilar bilan muloqotda o'zingizni o'ng'aysiz sezasizmi, xijolat bo'lasizmi?
40. Do'stlaringizning katta davrasida o'zingizni unchalik ham dadil tuta olmasligingiz rostmi?

Natijalarni qayta ishlash.

Kommunikativ qobiliyatlarni aniqlash uchun kalitdan foydalaning, buning uchun: 1, 5, 9, 13, 17, 21, 25, 29, 33, 37-savollarga “ha” javob bergan bo’lsangiz va 3, 7, 11, 15, 19, 23, 27, 31, 35, 39-savollarga “yo’q” javobini bergan bo’lsangiz 1 balldan hisoblang. Kommunikativlik koeffitsienti (Kk)ni ushbu formula orqali aniqlaysiz: $Kk = t/20$. Bu erda t – “kalit” bilan bir xil chiqqan javoblar soni joylashtiriladi.

Agar Kk quyidagicha bo’lsa:

0,10 dan 0,45 gacha — past daraja;

0,46 dan 0,55 gacha — o’rtadan past daraja;

0,56 dan 0,65 gacha — o’rta daraja;

0,66 dan 0,75 gacha — yuqori daraja;

0,76 dan 1,00 gacha — juda yuqori daraja.

Kommunikativ qobiliyatlar bu – o’qituvchining muloqoti samaradorligini va birgalikdagi faoliyatida psixologik mosligini ta’minlaydigan qobiliyatlardir.

Past – kam muloqotli, kishilar bilan muloqotda qiyinchilik va ma’lum noqulayliklar his etadigan kishi.

O’rtadan past – bu kishi muloqotga intilmaydi, notanish jamoada o’zini erkin seza olmaydi, o’z tanishlari doirasini toraytiradi, o’z fikrlarini himoya qilishni uddalay olmaydi va xafachilikni qiyin o’tkazadi.

O’rta – muloqotmand kishi, so’zamol (ayniqsa tanishlari davrasida), tanishlari doirasini cheklamaydi.

Yuqori – muloqotmand kishi, yangi vaziyatlarda o’zini yo’qotmaydi, tez yangi do’stlar va tanishlar orttiradi, muloqotda tashabbusni namoyon etadi, o’z do’stlari davrasini kegaytirish uchun harakat qiladi.

Juda yuqori – juda ham muloqotmand kishi, muloqotga doimiy ehtiyojni his etib turadi, atrofida bo’ladigan voqea-hodisalarga tez kirishib ketadi. Do’stlar davrasiga jonlanish kiritadi, do’stlari sonini ko’paytirish uchun yangi kishilar bilan tanishishga intiladi.

Tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash uchun quyidagi kalitdan foydalaning: testdagi 2, 6, 10, 14, 18, 22, 26, 30, 34, 38-savollarga “ha” va 4, 8, 12, 16, 20, 24, 28, 32, 36, 40-savollarga “yo’q” deb javob bergan bo’lsangiz 1 balldan hisoblang.

Tashkilotchilik qobiliyatlari koeffitsienti (Ko) quyidagi formula orqali aniqlanadi: $Ko = t/20$, bunda t – “kalit” bilan bir xil javoblar.

Agar Ko quyidagicha bo’lsa:

0,20 dan 0,55 gacha — past daraja;

0,56 dan 0,65 gacha — o’rtadan past daraja;

0,66 dan 0,70 gacha — o’rta daraja;

0,71 dan 0,80 gacha — yuqori daraja;

0,81 dan 1,00 gacha — juda yuqori daraja.

Tashkilotchilik qobiliyatlari – bu insonning o’zini va boshqalar faoliyatini tashkillashtira olishi qobiliyatidir.

Past — kishi o’z faoliyatini tashkil eta olmaydi, ichki intilish sezilmaydi. Ijtimoiy faoliyatda tashabbus namoyon yetmaydi.

O’rtadan past — kishi mustaqil qaror qabul qilishdan tortinadi, ijtimoiy hayotda tashabbus ko’rsatishi past.

O’rta — ekstremal vaziyatlarda o’zini idora eta oladi va hamkasblarini qaysidir qarorlar qabul qilishga ishontira oladi.

Yuqori — barcha ishlarni ichki intilish asosida amalga oshiradi. Murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar chiqara oladi.

Juda yuqori — tashkilotchilik faoliyatiga ehtiyoj his qiladi. Mustaqil qarorlar qabul qiladi, o’z fikrini himoya qiladi va uning boshqalar tomonidan ham qabul qilinishiga erishadi,

Ushbu metodika kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari darajasini aniqlash imkoniga ega. Maqsad sari intilish va faoliyatning tegishli shart-sharoitlari mavjud bo’lganda mazkur layoqatlar rivojlantirilishi mumkin.

Eksperimental tadbirlarni yakunlagach, olingan natijalar asosida quyidagi xulosaga keldik. Ma’lum bo’lishicha, sinaluvchi-o’qituvchilar natijalarida

kommunikativ qobiliyatlar darajalarini aniqlash bo'yicha olingan "past daraja" kuzatilmadi. Bu o'qituvchilarning o'ziga va kasbiga nisbatan yuqori mas'uliyatni his etishi va kasbiy darajasi ushbu holatda ijobiy tomonda ekanligini tasdiqlaydi.

Ta'kidlash lozimki, respondentlarning aksariyat qismi "o'rta daraja" (43,4%) va "yuqori daraja" (34,8%) ni namoyon etishdi. Bu natijalar o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi darajasining yuqoriligidan dalolat berib turibdi. Respondentlarning 4,3 foizi "o'rtadan past daraja", 17,5 foizi esa "juda yuqori daraja" mezonini bo'yicha natijalarni namoyon etishgan.

Umuman, maktab o'qituvchilarida kommunikativ qobiliyatlar kuchli ifodalangan, ular ma'lum bilim, ko'nikma va amaliy pedagogik tajribaga ega bo'lgan holda maktabda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyatni adekvat his etishadi, o'qituvchilar bilan o'quv faoliyatini tashkil etib, maksimal darajada ularga fan asoslarini singdirishga harakat qilishlari olingan eksperimental natijalardan ma'lum bo'ldi.


Kommunikativ qobiliyatlarning maktab o'qituvchilarida namoyon etilishi dinamikasi.

Mezonlar	Respondentlar soni	%
Past daraja	0	0
O'rtadan past daraja	1	4,3
O'rta daraja	10	43,4
Yuqori daraja	8	34,8
Juda yuqori daraja	4	17,5
Jami:	23	100

Ushbu natijalarni diagramma ko'rinishida aks ettirganimizda ular orasidagi farqlarni yanada yaqqol tasavvur etish mumkin (2-diagrammaga qarang).

Erishilgan eksperimental tadqiqotimiz natijalaridan aytishimiz mumkinki, hozirgi sharoitda o'z oldiga qo'yilgan muhim ijtimoiy vazifalarni o'qituvchilar katta mas'uliyat bilan his etishadi, bu ular bergan javoblarda yaqqol namoyon bo'ldi. Shuningdek, har ikkala metodika bo'yicha erishilgan natijalarga tayangan holda aytish mumkinki, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi darajasi bugungi kunda ijobiy darajada bo'lib hisoblanadi.

Eksperimental testimizning ikkinchi parametri – o'qituvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlarining namoyon etilishini diagnostik o'rganganimizda natijalar oldingi parametrlardan ko'ra ancha yuqori bo'lib chiqdi.




Jumladan, o'rta daraja bo'yicha 21,7%, yuqori daraja bo'yicha 47,8% va juda yuqori daraja bo'yicha 13,1% respondentlar ijobiy natijalar ko'rsatdilar. Ushbu erishilgan statistik ma'lumotlar maktab o'qituvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarining nisbatan yuqori namoyon etilganligini ko'rsatdi (6-jadvalga qarang).

Tashkilotchilik qobiliyatlarining maktab o'qituvchilarida namoyon etilishi dinamikasi.

Mezonlar	Respondentlar soni	%
Past daraja	1	4,3
O'rtadan past daraja	3	13,1
O'rta daraja	5	21,7
Yuqori daraja	11	47,8
Juda yuqori daraja	3	13,1
Jami:	23	100

Yuqoridagi natijalarni diagramma shaklida tasvirlaganda, quyidagi manzara hosil bo'ladi (3-diagrammaga qaralsin).



Aytish mumkinki, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim sohasi oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarni maktabdagi har bir o'qituvchi katta mas'uliyat bilan his etmoqda. Demak, ijtimoiy buyurtma – ya'ni bilimli, yuksak ma'naviyat va madaniyatli, Vatanini sevdigan zamonaviy yoshlarni tarbiyalash pedagogik jihatdan kompetentli mutaxassislarga bog'liq. Ushbu mas'uliyatli vazifa o'qituvchilarni muntazam tarzda o'z ustida ishlashga undaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bo'lg'usi o'qituvchi-pedagoglardagi kasbiy kompetentlikni shakllanganlik darajasini aniqlash va uni rivojlantirish usullarini tadqiq etishga bag'ishlangan mazkur dissertatsion tadqiqotda qo'yilgan vazifalar bosqichma-bosqich hal etildi. Nazariy va empirik tahlillar bizga quyidagi xulosalarni ilgari surish imkoniyatini berdi:

*Birinchi*dan, **kompetentsiya** – bu baholanishi mumkin bo'lgan, kuzatilayotgan xatti-xarakatning klasteridir. Buni biz bo'lg'usi o'qituvchi-pedagogning qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyalarining namoyon bo'lishi misolida ko'rinadi.

*Ikkinchi*dan, kasbiy kompetentlik: 1) global kompetentlik; 2) ijtimoiy-madaniy kompetentlik; 3) ijtimoiy faoliyatga oid kompetentlik; 4) axborot olishga kompetentlik; 5) kommunikativ kompetentlik; 6) o'quv-bilishga oid kompetentlik; 7) amaliy faoliyatga oid kompetentlik turlarining kompleks majmui bo'lib, bular o'z navbatida shaxs kompetentsiyalari, kasbiy individual xislatlari va sifatlarini aniqlovchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

*Uchinchi*dan, shaxs kompetentligi «**kompetentlik nazariyasi**»ga asosan, to'rt bosqichli jarayonni, ya'ni anglanmagan kompetentsizlikdan anglanmagan kompetentlikka o'tish jarayonini o'z ichiga qamrab oladigan quyidagi:

1) Anglanmagan kompetentsizlik bosqichi: shaxsning «men – hech narsa bilmasligim haqida, hech narsa bilmayman» darajasi.

2) Anglanilgan kompetentsizlik bosqichi: shaxsning «men bilmasligim haqida bilaman» darajasi.

3) Anglangan kompetentlik bosqichi: shaxsning «men nima bilishim haqida bilaman» darajasi.

4) Anglanmagan kompetentlik bosqichi: shaxsning «men biladigan narsam haqida hech narsa bilmayman» darajasi kabi **psixologik holatlar** bilan baholanadi.

*To'rtinchi*dan, kasbiy yetuklikning uchta darajasi mavjud bo'lib, ularning har biri «**anglanmagan kompetentsizlik** → **anglanilgan kompetentsizlik** →

anglangan kompetentlik» tizimidagi kasbiy kompetentlik darajalari klasterini belgilab beradi.

Beshinchidan, kasbiy kompetentlikning bunday klasteri uch xil: 1) **faoliyatni**; 2) **shaxslilikni**; 3) **motivatsiyani** tashkil qiluvchi kompetentsiyalar majmuida ko‘rinadi.

Oltinchidan, kompetentsiya *muayyan shaxs* doirasida o‘rganilganda, insonning rivojlantirishi zarur bo‘lgan kuchli tomonlarini, sifatlarini yuzaga chiqarishda va ishni eng yaxshi, samarali bajarish mumkin bo‘lgan usullarini aniqlashda yordam bersa, *tashkilot* miqyosida esa hamkasblarni o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojlarni va berilgan maslahatlar natijasida to‘lmay qolgan «bo‘shliq»larni to‘ldirishda asqotadi.

Yettinchidan, **kompetentlik** – ta’lim-tarbiya jarayonining uzluksizligini ta’minlash uchun, ya’ni muayyan kishilar (guruhlar) malakasini oshirish va ish(o‘qish)-faoliyatini yaxshilash, yuksak ma’naviyatli shaxs shakllanishida o‘ziga xos **indikator** sifatida xizmat qiladi.

Bo‘lg‘usi o‘qituvchi-pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish usullari mavzusida olib borilgan keng qamrovli izlanishlar asosida sohani istiqbolini belgilaydigan ayrim jihatlar ham aniqlandi. Shunga ko‘ra quyidagi **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Pedagogik kompetentlik bu – pedagogik kasbiy moslik va pedagogik mahorat orqali shakllanadi, shu bois o‘qituvchi har kuni, o‘z o‘quvchilari tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan barcha va turli yo‘nalishdagi savollarga javob berishga tayyor bo‘lishi uchun muntazam tarzda o‘z ustida ishlashi, mustaqil ta’lim olishi zarur.

2. Turli pedagogik ziddiyatli vaziyatlarda o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan muloqot orqali ushbu ziddiyatlarni yechishda o‘qituvchiga pedagogik va ijtimoiy psixologiya fani yordam berishi mumkin. Shuning uchun bu fanlar bo‘yicha yanada keng bilimlarga ega bo‘lish maqsadga muvofiq.

3. Pedagogik muloqotni amalga oshirishda demokratik usuldan foydalanish, dars materialini o'quvchilarga chuqur singdirishda interaktiv uslubdan foydalanish yaxshi natijalar berishi mumkin.

4. O'qituvchi o'zining pedagogik kompetentlik darajasini yuqori plankada ushlab turishi uchun muntazam tarzda ilmiy pedagogik matbuotda ilmiy-uslubiy maqolalar bilan chiqib turishi maqsadga muvofiq.

5. Pedagogik jamoatchilik bilan hamqadam bo'lish maqsadida radio va televideniye, shuningdek, kundalik vaqtli matbuotda e'lon qilinadigan, pedagogika va psixologiyaga oid materiallardan boxabar bo'lib turish lozim. Bu ilmiy-uslubiy tajribani tezkor ilmiy pedagogik yangiliklar bilan boyitishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. «Ta’lim to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // Oliy ta’lim Me’yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G‘ulomov tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2001. – B. 3-18.

II. Prezident asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2016.B.56.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent – “O‘zbekiston” - 2017.- B.48.

III. Sohaga oid me’yoriy hujjatlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta’lim Me’yoriy hujjatlari / Akademik S.S. G‘ulomov tahriri ostida. – T.: «Sharq», 2001. – B. 18-52.

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Yoshlarda professional o‘shishga intilishni rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari (shajaralar negizi misolida): monografiya [Text] / O.Hayitov, N.Umarova; mas’ul muharrir V.M. Karimova, Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot un-ti. – T.: «Turon-iqbol», 2011. – 128 b.
2. Жданкин Н.А. Мотивация персонала. Измерение и анализ. Учеб.-практ. пособ. – М.: Финпресс, 2010. – 272 с.
3. Hayitov O.E. Iqtisodiy psixologiya: O‘quv qo‘llanma. Oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun. – T.: BDU, 2009. – 230 b.
4. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2008. – 512 с.
5. Karimova V.M., Hayitov O.E. Ma’muriy boshqaruv organlari rahbarlarining lavozimga loyiqligini baholashga oid test va metodikalar to‘plami.

Metodik qo'llanma. // Prof. V.M. Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 64 b.

6. Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun // Prof. V.M. Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiyar» nashriyoti, 2008. – 208 b.

7. Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetentsiya asoslari. Monografiya. / Prof. V.M. Karimova tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 120 b.

8. Hayitov O.E., Ochilova G.O. Tadbirkorlik psixologiyasi: O'quv qo'llanma. 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun // Prof. V.M. Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 144-b.

9. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya. – T., 2006. – 122 b.

10. Анисимова О. А. Психолого-педагогическая компетентность как фактор сохранения и укрепления профессионального здоровья учителя: Дис. ... канд. психол. наук. – М., 2002.

11. Ахметжанова Г.В. Многоуровневая педагогическая система формирования готовности личности к педагогической деятельности (Монография)/ Под ред. Ю.К.Черновой – Саратов: «Научная книга», 2002. – 212 с.

12. Qurbonov Sh. va boshqalar. Barkamol avlod orzusi («Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirish borasidagi publisistik mulohazalar). – T.: «Sharq» nashriyoti matbaa konserni. 1998. – B. 62-63.

13. Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Umumiy psixologiya: Nopedagogik va nopsixologik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: BDU, 2010. – 328 b.

14. Tojiboyeva D., Xo'jayev N., Avalova G. Iqtisodiy pedagogika: O'quv

qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 256 b.

15. Hakimova M. Kasb pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Fan va texnologiya» 2008. – 252 b.

16. Xo‘jayev N. va boshq. Pedagogika: Darslik. – T.: BDU «Talaba», 2007. – 368 b.

17. Hayitov O.E. Psixodiagnostika: O‘quv qo‘llanma. / Prof. V.M.Karimovanning umumiy tahriri ostida. – T.: BDU «Talaba», 2007. – 225 b.

18. Ксензова Г.Ю. Как обеспечить ситуацию успеха учителю и ученику: Учебное пособие. – М.: Педагогическое общество России. 2005. – 56 с.

19. Hayitov O.E. Oila va shaxsiy-kasbiy sifatlar uyg‘unligini tadqiq etish muammolari // Jurnal, Psixologiya. – Buxoro, 2011. – T.1. – № 1. – B. 71–74.

20. Hayitov O., Umarova N. Kasbiy qobiliyatlar rivojlanishiga oilaviy muhitning ta’siri (shajaralar negizida) // Ayollar ijtimoiy faolligini ta’minlashda gender-menejmentining o‘rni: Ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: «Extra-Print» MChJ bosmaxonasi, 2011. – B. 24–30.

21. Hayitov O.E., Kazibayev F.T. Yuksak ma’naviyatli shaxs shakllanishida kasbiy yetuklik va kompetentlikning ahamiyati // «Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari» mavzusidagi Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari (Toshkent, 30 mart 2011 yil). – T.: TDPU, 2011. – B. 43–45.

22. Hayitov O. Professionalizmning shakllanishiga xizmat qiladi (2-maqola) // Jurnal, Ta’lim menejmenti. – Toshkent, 2010. – № 4 (32). – B. 88-96.

ILOVALAR

1-ilova



KASBIY KOMPETENTLIK STRUKTURASI